

**Muhayyoxon Hamidova**

**BOSHLANGICH SINIF  
OQITUVCHILARINI  
TAYYORLASH MASKANI**



**Muhayyoxon Hamidova**

**Namangan davlat universitetining  
75 yilligiga bag'ishlanadi**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI  
TAYYORLASH MASKANI**

**Namangan – 2016**

Ushbu risolada "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasining tashkil topishi, kafedrada faoliyat olib borgan, bugungi kunda ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash ishlariga, ilm-fan rivojiga o'z hissalarini qo'shgan hamda qo'shayotgan professor-o'qituvchilar xususida keng va atroflicha to'xtalangan bo'lib, kafedraning 2016-yil 11-noyabrda o'tkazilgan yig'ilishida 6-sonli yig'ilishida, pedagogika fakultetining 2016-yil 25-noyabrda o'tkazilgan uslubiy Kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va 4-bayonnoma bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

**Mas'ul muharrir:**

**M.Holmurodov**

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:**

**H.Usmonova**

filologiya fanlari doktori

**K.Abdullayev**

Namangan davlat universiteti qoshidagi

2-akademik litsey direktori,

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur risola Namangan davlat universitetining 2016-yil 21-dekabrda o'tkazilgan uslubiy Kengashida muhokama qilingan va № 4-bayonnoma bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

**M.Hamidova.**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash maskani(risola).- Namangan, 2016.- 144 b.



©Namangan davlat universiteti

## SO'Z BOSHI

Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish davrimizning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ona vatanimiz O'zbekistonning kelajagi bugungi yosh avlodning uquvi, bilim salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir. Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonidagi islohotlarning bosh maqsadi ham barkamol avlodni tarbiyalashdir. Boshlang'ich ta'lim bu borada bosh bo'g'in bo'lib, bolaning bu davrdagi qiziqishlari, qobiliyati, ko'nikmasi, mashg'ulot jarayoniga bo'lgan munosabati, bolaning kelgusi hayotida, kasb tanlashida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Serquyosh ona-yurtimiz va xususan, go'zla viloyatimizda ilm-fanning gurkirab rivojlanishi hamda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirish, ular salmog'ining sifat jihatidan o'sib borishida Namangan davlat universitetining, shuningdek, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasining alohida o'rni bor. Uzoq yillar davomida ushbu kafedraning xalqimizning e'zoziga sazovor bo'lgan ko'plab olimlar, mutaxassislar yetishtirishdagi, ustoz-shogird munosabatlarining eng yaxshi an'anaga aylanishi fikrimizni oydinlashtirishi mumkin.

Ushbu "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash maskani" nomli risolada "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedra tarixi, har bir professor-o'qituvchining o'ziga xos serqira hayot yo'li, Respublikamizda ilm-fanning rivojlanishiga qo'shgan kamtarona xizmatlari o'z ifodasini topgan.

Zero, har bir shu oliygohda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchi, tahsil olayotgan talaba ushbu kafedra tarxini yaqindan bilishni istaydi. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur risola tayyorlangan. Shuning uchun ushbu risola "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini tarixini yaqindan bilib olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**M.Q.XOLMURODOV**

**Namangan davlat universiteti**

**Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini**

**dotsenti, fizika-matematika fanlari**

**nomzodi**

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH MASKANI

(Namangan davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası  
tarixi)

O'zbek elim,

bilimdonlik

qoningda bor,

1018 yulduzu

osmoningda bor,

“Qays-u Farhod,

Dilorom-u”,

dostoningda bor,

Yetavergin

ilm o'tliq

niyatingga,

Tegmasin ko'z,

“Yuksak ma'naviyatingga”

Ilm bois tanildi-da

“Shayx-ur rais”,

Dunyo qildi muallim-u

Soniyni his”

Xorazmiy va Beruniy zo'r

mutaxassis,

Temur tuzuklari

dastur

madaniyatingga,

Tegmasin ko'z

“Yuksak ma`naviyatingga”

“Beshikdan to qabrgacha

ilm izlab”

Buxoriylar hadislardan

ochadi lab,

Ilm va so'z Navoiy-chun

noyob sadaf,

Joyla, xalqim

qadr degan savatingga,

Tegmasin ko'z

“Yuksak ma`naviyatingga”

Qulluq qilay o'zi degan

da`vatingga,

Ko'ksimiz-la ko'taraylik

bayrog'ingni,

Ko'zga surtib jannatini

pok tuprog'ingga,

Hatto ilm deya

Tushgan yaprog'ingni.

Asragaymiz yuraklarda

Ko'z munchog'dek,

Ana shunday olim bo'lib

yashar o'zbek!

“Moziyga qarab ish tutmoq xaylidir”, -degan edi o'zbek romanchiligimizning asoschisi Abdulla Qodiriy. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” degan fikrlari ham bugun jonajon xalqimizning hayotiy

shioriga aylandi. Shu bois yoshlarimiz zamon va makonning tarixi, o'tmishi bilan qiziqib ish ko'rmoqdalar. Ta'lim va tarbiyaning kechmishi juda olis, o'rganish esa juda maroqli. Universitet, institut, kollej, litsey kabi ta'lim muassasalarining maqsadi bitta: dargoh o'tmishi tarixiga nazar solish. Shunday ekan "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasining tarixi, bosib o'tgan yo'llari xususida to'xtalishni savobli ish deb bildik.

"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası Namangan davlat universitetida 1956-yildan boshlab faoliyat yuritib keluvchi professor-o'qituvchilar uyushmasidan biridir. Mazkur kafedrani tom ma'noda universitetning poydevori deyish o'rinli. Chunki poydevor puxta va pishiq bo'lsa, bino shuncha mustahkam bo'ladi. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası ham 84 yil mobaynida xalq ta'limi tizimi uchun minglab malakali, yuksak saviyali kadrlarni yetishtirib berdi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uchinchi bosqichi vazifalarini ro'yobga chiqarishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Yosh avlod ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi fidoi o'qituvchi-murabbiylar tayyorlash jarayoni xalqimizning uzoq o'tmishi bilan uzviy bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi", DTS ga muvofiq 1997-yildan boshlab ko'p tarmoqli ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga kirishildi.

Uzluksiz ta'limning muhim bosqichlaridan biri uzviy bog'liqlikda olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda faoliyat ko'rsatish pedagogdan yuksak mahorat, metin iroda va sabr-toqat talab etadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchining asl shaxsi shakllanadi, endi u o'zini tutishni o'rganadi, atrof-muhitni kuzata oladi, o'rtoqlar va ustozlari bilan muomalada bo'ladi, kiyinish, taomlanish madaniyatini o'zlashtirib



boradi. Boshlang'ich sinflarda va ta'lim uzviy bog'liqlikda olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirilgan bilimlar, egallangan ko'nikma va malakalar yuqori sinf ta'limi uchun serunum zamin hisoblanadi.

XX asrning 42-yillarida Namanganda muallimlar tayyorlovchi oliy bilimgo'lining tashkil etilganligi viloyatimiz madaniy va ma'rifiy hayotida muhim voqea bo'ldi. Bilimgoh tobora kengayib, rivoj topib bordi. Mana Namangan davlat universitetida oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlana boshlanganiga ham 84 yildan ortiq vaqt o'tdi.

Tabiiyki, viloyatimiz aholisi sonining tobora o'sishi, xalq ta'limi tarmoqlarining kengayishi, maktablar va ularda boshlang'ich sinflar sonining ko'payishi har tomonlama yetuk o'qituvchilarni tayyorlashga ehtiyojni paydo qildi. Shu boisdan ham universitetning to'ng'ich fakultetlaridan biri – tarix-filologiya fakultetida 1959-o'quv yilidan boshlab o'zbek tili va adabiyoti, tarix fani o'qituvchilari tayyorlash bilan bir qatorda yuksak malakali oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash ishiga ham katta e'tibor berildi. Bu bo'limga dastlabki yili 25 yigit-qiz talabalikka qabul qilingan edi. Qabul soni keyingi o'quv yillaridan ortib bordi.

1962-yildan institutning sirtqi bo'limi orqali ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlashga kirishildi. Unga ishdan ajralmagan holda o'qiydigan 50 kishi o'qishga qabul qilindi. Keyingi yillarda sirtqi bo'limda tahsil oluvchi talabalar soni ortib bordi. 1967-1968-o'quv yilida sirtqi bo'limning boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetiga qabul 200 kishiga yetdi.

Namangan, Chust, Kosonsoy va boshqa shaharlardagi pedagogika bilim yurtlarining boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi bo'yicha tugatgan hamda bir yil va undan ortiq ish stajga ega bo'lgan

maktab o'qituvchilari sirtqi bo'limning 4 yillik maxsus guruhlariga, o'rta ma'lumotli yoshlar esa 5 yillik guruhlariga o'qishga qabul qilina boshlandi. 1991-1992-o'quv yilida sirtqi bo'limning boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetida 24 ta guruh tahsil olgan bo'lib, unda 700 ga yaqin talaba ishdan ajralmagan holda tahsil oldi. Sirtqi bo'limning boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi o'qituvchilari tayyorlash sohasini bir necha yillar davomida filologiya fanlari nomzodi A.Abdullayev boshqardi. 1976-yildan 1992-yilga qadar bu lavozimda filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.Eshondadayev samarali faoliyat ko'rsatdi. 1992-yilga qadar sirtqi bo'lim orqali 3200 dan ortiq malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlandi. O'tgan yillar davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash ishiga mavjud o'zbek tili va adabiyoti, pedagogika va psixologiya, fizika-matematika, geografiya va biologiya, jismoniy tarbiya, rus tili va adabiyoti kabi bir qator kafedralarning o'qituvchilari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. O.G'affarova, T.No'monov, M.Iminov, N.Boboxo'jayev, N.Shokirova, A.Azizov, F.G'aybullayev, A.Nodirov, A.Asqarov, G'.Ubaydullayev va boshqa ko'plab ustoz pedagoglar shular jumlasidandir.

1966-1967-o'quv yilida kunduzgi bo'lim, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakulteti mustaqil fakultet sifatida tarix-filologiya fakulteti tarkibidan ajralib chiqdi. Shu yili fakultetning 4 yillik guruhiga 50 nafar talaba o'qishga qabul qilinib, ular faqat boshlang'ich ta'lim metodikasi mutaxassisligi bo'yicha tahsil oldilar. 5 yillik guruhga qabul qilingan 50 nafar talaba esa boshlang'ich ta'lim metodikasidan tashqari, musiqa va tasviriy san'at fani o'qituvchiligi bo'yicha qo'shimcha ixtisosini egalladilar.

Fakultetning ana shu yillardagi bitiruvchilaridan A.Munavvarov – pedagogika fanlari doktori, professor; M.Yusupov – professor, B.Oripov va M.Hayitboyevlar – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent bo'lib

yetishdilar. S.Turg'unov, A.Sheraliyev O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi degan sharaflı unvonlarga ega bo'ldilar. Namangan tumanidagi 8, 37-o'rta maktablarning katta o'qituvchilari B.Jo'rayev, T.Ubaydullayev, Uchqo'rg'on tuman xalq ta'limi bo'limi boshlang'ich sinflar metodisti M.Ahmedova, 3-maktab boshlang'ich sinf metodist-o'qituvchisi M.Akbarova, Namangan shahridagi 7-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari S.Bahodirova, H.Inomov, To'raqo'rg'on tumanidagi 7-maktab metodist-o'qituvchisi Z.Normatov va boshqa ko'plab sobiq talabalar el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan murabbiylardir.

1966-1969-yillardagi kunduzgi bo'limning boshlang'ich ta'lim va metodikasi fakultetida filologiya fanlari doktori, professor A.Aliyev, 1969-1971-yillarda esa katta o'qituvchi Yo.Uzoqovlar dekan lavozimida faoliyat olib bordilar.

1980-yildan boshlab, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi bo'limiga talabalar qabul qilish vaqtincha qisqartirilganligi sababli u filologiya fakulteti tarkibiga kiritildi. Filologiya fakultetiga filologiya fanlari nomzodi, dotsent T.G'oziboyev, siyosiy fanlar doktori, professor T.Fayzullayev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Jamolovlar rahbarlik qildilar.

Yuksak malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlashda har doim ham "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi" kafedrası yetakchi kafedralardan biri bo'lib keldi. 1960-yilda mazkur kafedraga, ya'ni "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi" kafedrasiga asos solindi va unga dastlab filologiya fanlari nomzodi N.Boboxo'jayev mudir etib tayinlandi. Shundan so'ng 1961-1962-yillarda filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.Jamolov, 1962-1966- yillarda tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent S.Po'latov, 1966-1968-yillarda katta o'qituvchi Yo.Uzoqov, 1969-1974-yillarda biologiya fanlari nomzodi, dotsent F.Ahmadboyeva, 1980-yilda kafedra qayta tashkil etilib, 1980-1983-

yillar mobaynida dotsent N.Boboxo'jayev, 1983-1997-yillarda professor M.Yusupov, 1997-2000-yillarda katta o'qituvchi N.Yusupov, 2000-2002-yillarda pedagogika fanlari nomzodi, dotsent B.Sattarov, 2002-2003-yillarda filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.Qozoqov, 2004-2006-yillarda psixologiya fanlari nomzodi A.Rahmonov, 2006-2007-yillarda pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M.Nishonov, 2007-2011-yillarda esa pedagogika fanlari nomzodi A.Sobirov, 2011-2012-yillar pedagogika fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Y.Shaamirova, 2012-2013-yillar filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova, 2014-yil fizika-matematika fanlari nomzodi T.Abdullayev, 2014-2016-yillar A.Inomiddinov kafedra mudiri sifatida faoliyat olib bordilar. 2016-yildan boshlab fizika- matematika fanlari nomzodi T.Abdullayev "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini boshqarib kelmoqda.

1987-1988-o'quv yilida kunduzgi bo'limda tahsil olayotgan talabalar sonining ko'pligi va maktablarda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha yuksak malakali mutaxassis o'qituvchilar soni yetarli bo'lmaganligi sababli boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakulteti filologiya fakulteti tarkibidan mustaqil bo'lib ajralib chiqdi. Fakultetga iste'dodli olim, falsafa fanlari nomzodi S.To'xtaboyev dekan etib saylandi. Fakultet tarkibiga maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi bo'limi birlashtirildi. Bu bo'lim ham 1990-1991-o'quv yilidan boshlab mustaqil fakultet sifatida ajralib chiqdi.

1987-1988-o'quv yilida boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetining o'zbek va rus guruhlarida 262 nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, 1991-1992-o'quv yilida 17 ta guruhda 404 nafar yigit-qiz tahsil oldilar. O'tgan davr mobaynida fakultetning kunduzgi bo'limi orqali ko'plab yuqori malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlandi.

Fakultet o'zining tayanch maktablariga ega. Shuningdek, kafedra Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Farg'ona davlat universiteti, Norin sanoat va servis kasb-hunar kolleji, Namangan shahridagi 7, 11, 13, 27, 31, 52-maktablar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan holda muntazam ravishda ish olib bormoqda.

Fakultet talabalari bilan boshlang'ich ta'lim bo'yicha mutaxassislar, olimlar, yozuvchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston pedagogika ilmiy-tekshirish institutining boshlang'ich ta'lim bo'limi katta ilmiy xodimi M.Xudoyberganova, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti professori K.Qosimova, dotsent O.Hasanboyeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, Namangan shahridagi 18-umumta'lim boshlang'ich sinf o'qituvchisi S.Turg'unov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi, Norin tumanidagi 11-maktab metodist-o'qituvchisi A.Sheraliyev, shu tumandagi 23-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi Yo.Shokirova, yozuvchilardan Said Ahmad, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev va boshqalar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlar talabalarning o'zlari tanlagan kasblariga bo'lgan mehri yanada oshirishda, ularni axloqiy poklik, oliyanoblik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda katta hissa bo'lib qo'shildi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakulteti yaqinga qadar o'zining quyidagi uchta yirik mutaxassislik kafedralariga ega bo'lgan holda faoliyat olib bordi:

## BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI VA METODIKASI KAFEDRASI



1960-1974-yillarda o'z faoliyatini faqat yuksak malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlashga bag'ishlangan mazkur kafedra, 1980-yilda qayta tashkil etildi. Dastlabki kafedraning tashkil topishida ham, qayta tashkil etishida ham filologiya fanlari nomzodi, dotsent Nuriddin Boboxo'jayevning xizmatlari katta bo'ldi. U 1983-yilgacha kafedrada mudirlik lavozimida ishladi. Shundan so'ng kafedrani uzoq yillar O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor Mahmudjon Yusupov boshqarib keldi.

Kafedra o'zining taraqqiyoti yo'lida yuksak malakali mutaxassis muallimlar hisobiga boyib, jiplashib, ko'payib bordi. Jumladan, kafedrada 1980-1985-yillarda 6 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda 18 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib bormoqda. 1988-1989-o'quv yilida mazkur kafedra bazasida maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasi, 1990-

1991-o'quv yilida esa boshlang'ich sinflarda ashula va musiqa kafedrası tashkil etildi hamda keyinchalik ular mustaqil kafedra bo'lib ajralib chiqdi.

Talabalarga hozirgi zamon fani va texnikasi yutuqlari asosida ta'lim-tarbiya berish, maktablarning boshlang'ich sinflariga amaliy-metodik xizmat ko'rsatish-kafedra a'zolarining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalardandir. Ular ana shu istiqbolli yo'lda ish vaqtini ilmiy asosda tashkil etgan holda har bir daqiqadan unumli foydalanmoqdalar, izlanmoqdalar, ijodkorlik va tashabbuskorlik namunalarini ko'rsatmoqdalar. Kafedra a'zolari faoliyatidagi foydali ish bilan shug'ullanishga intilishni yuqori darajada bo'lishi – ish vaqtdan samarali foydalanishga, pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga, vaqtni tejash, tejalgan vaqtda o'z ustida ishlash va madaniy xordiq chiqarish uchun foydalana bilishga bog'liq.

Kafedraning universitetdagi boshqa mavjud kafedralardan farqi shundaki, bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar xilma-xil fanlar bo'yicha jamlangan. Masalan, "Ona tili o'qitish metodikasi", "Ona tili va adabiyoti", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi", "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi", "Mehnat o'qitish metodikasi", "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" va boshqa fanlar ana shular jumlasidandir. Talabalarga mazkur fanlardan ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirish yuzasidan kafedrada ilmiy-metodik ishlarni muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Kafedrada ish yuritishning ijobiy uslublaridan biri har bir xodimning o'z ishiga ijodiy, ilmiy asosda mustaqil, tashabbuskorlik bilan yondashishni tashkil etilganligidir. Kafedra a'zolarining har biri o'zlarining ish yuritish metodikasi va dasturlariga ega. Unda fanga doir dasturlar, o'quv ish rejalari, ma'ruza matnlarining namunasi, mashg'ulotlarni tahlil qilish hamda qayd etish daftari, guruh rahbarligi rejasi, ilmiy ishlari ro'yxati, to'garaklarning va iqtidorli talabalar bilan

ishlash hamda ustoz-shogirdlik ish rejaları, amaliyot va maktablar, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari bilan aloqa, yosh tadqiqotchi-o'qituvchilar bilan ishlash rejaları mavjud. Har bir o'quv yilida bajarilgan ishlar, o'quv yili uchun shaxsiy rejalar va boshqa barcha hujjatlar hamda materiallar kafedrada saqlanadi. Ikkinchi uslub esa o'qituvchi va tadqiqotchilarga qulay imkoniyatlar yaratishdir. Natijada, kafedraning professor-o'qituvchilaridan A.Otamirzayev Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining sirtqi aspiranturasiga kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib o'qishga kirdi, kafedra xodimi Sh.Ahmedov, katta o'qituvchi M.Abdurahmonov, o'qituvchi M.Jamolova, F.Karimovalar esa nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, nomzodlik ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldilar.

Talaba-yoshlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish hamda professor-o'qituvchilarning an'anaviy ilmiy-nazariy konferensiyalarida ilmiy, nazariy va metodik xarakterda namunali ma'ruzalar qilish kafedra a'zolarining doimiy faoliyatiga aylangan. Shu bois, 1989-yildan boshlab har yili kafedra a'zolarining "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya" turkumidagi metodik to'plamlari muntazam nashr ettirib kelindi. Bu tadbirning amalga oshirilishi uchinchi ish uslubi bo'lib, metodik to'plamlardan kunduzgi, sirtqi bo'lim talabalari hamda maktablarning boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining o'quv va ish faoliyatlarida foydalanmoqdalar. Kafedra a'zolarining ana shunday xarakterdagi maqolalari "Boshlang'ich ta'lim", "O'zbek tili va adabiyoti" va boshqa jurnal, gazetalarning sahifalarida muntazam ravishda yoritib kelinmoqda.

Kafedrani boshqarish va rahbarlik qilishdagi to'rtinchi qulay uslub – fanlar bo'yicha "Boshlang'ich ta'lim metodikasi", "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi", "O'zbek tili va bolalar adabiyoti" ilmiy-metodik bo'limlarning tashkil etilganligidir.



“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va metodikasi” bo‘limida professor M.Yusupov, katta o‘qituvchi M.Abdurahmonov, S.Musayeva, o‘qituvchi S.Qoraxonova, V.Abdullayev singari tajribali metodistlar samarali mehnat qilganlar. Bo‘lim a‘zolari tashkil etgan “Mohir qo‘llar”, “Yosh musavvirlar”, “Tabiatshunoslik” to‘garaklari mashg‘ulotlariga talabalar muntazam ravishda qatnashdilar. Bo‘limda metodistlar tomonidan ochiq darslar o‘tkazilib, ushbu ochiq darslar asosida yozilgan ma‘ruzalar matni muhokama etib borildi. Natijada ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarning yuksak saviyada bo‘lishiga erishildi. Ona tili o‘qitish metodikasi, tasviriy san‘at, mehnat, yer bilimi va tabiatshunoslik fanlaridan talabalarga saboq berishning eng qulay usullari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish, kunduzgi, sirtqi bo‘lim talabalarini zamonaviy, ilg‘or o‘qitish metodlari bilan bahramand qilishga alohida e‘tibor berildi. Ayniqsa, sirtqi bo‘lim talabalarini uchun konsultatsiyalar uyushtirish va bo‘sh o‘zlashtirayotgan, fanlardan qarzidor talabalar bilan yakka tartibda ish olib borish bo‘lim a‘zolarining diqqat markazida bo‘lib keldi. Ularga kurs ishi va kontrol ish mavzularini tushuntirib berish, o‘z vaqtida himoya qilishlarini ta‘minlashga namunali rahbarlik qilindi.

“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va metodikasi” bo‘limiga qarashli “Ona tili o‘qitish metodikasi”, “Yer bilimi va tabiatshunoslik”, “Mehnat ta‘limi metodikasi”, “Rasm o‘qitish metodikasi” kabi maxsus o‘quv xonalari bo‘lib, ular zamonaviy o‘quv qurollari hamda didaktik materiallar bilan jihozlandi.


“Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va psixologiyasi” bo‘limida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, O‘zbekiston xalq maorifi a‘lochisi, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Azimjon Asqarov ishlagan. U uzoq yillar fakultet va kafedrada xizmat qilib, talaba-yoshlarga “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologiyasi”, “Ta‘lim-tarbiya va o‘qituvchi psixologiyasi”, “Umumiy psixologiya” kabi fanlaridan saboq bergan.

Mazkur bo'limda uning shogirdi, O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi N.Yusupov, falsafa fanlari nomzodi S.To'xtaboyev, katta o'qituvchi I.Jo'raboyev, H.Qurbonov, o'qituvchi M.Jo'rayeva, E.Botirova, A.Otamirzayev kabi professor-o'qituvchilar "Umumiy psixologiya", "Yosh va pedagogik psixologiya", "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Maktabshunoslik", "O'quvchilar tashkiloti nazariyasi va metodikasi", "Defektologiya", "Kuni uzaytirilgan guruhlarda ta'lim-tarbiya" singari bir qator fanlardan talabalarga saboq berdilar. Shuningdek, talabalarining maktablarda o'tkazadigan o'quv va malakaviy amaliyotlarining mazmunli hamda samarali bo'lishiga bo'lim a'zolari alohida e'tibor berib keldilar. Bo'limda "Yosh psixolog-pedagog" to'garagi ham faoliyat olib bordi.

1989-yilning may oyida institut rektoratining maxsus buyrug'i va ko'rsatmasiga muvofiq bo'lim a'zolarining sa'yi harakati tufayli "Azimjon Asqarov nomidagi pedagogika va psixologiya xonasi" tashkil etildi. Ushbu xonada A.Asqarov faoliyatiga doir materiallar bilan bir qatorda, chet el, rus, o'zbek va Sharq xalqlarining mutafakkir pedagog-psixologlarining suratlari, "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya" nomli stend, kafedra o'qituvchilarining ilmiy to'plam va maqolalari, kitoblari ko'rgazmasi hamda zarur didaktik materiallar munosib joy oldi.

Hozirga qadar ushbu xona doimo talabalar bilan gavjum. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi hamda boshqa bir qator fanlarga oid ma'ruzalar ana shu tabarruk inson nomi bilan atalgan xonada o'qimoqda.

"O'zbek tili va bolalar adabiyoti" bo'limi esa kafedra hamda fakultetda mamlakatimizdagi bo'lib o'tgan o'zgarishlarga hamohang tarzda o'zbek tiliga davlat maqomi berilganligi munosabati bilan bu sohadagi muhim ishlarni o'z oldilariga maqsad qilib olgan. Talabalarga chuqur va nazariy bilim berish ularda o'zbek tilidan amaliy ko'nikma hosil qilish, ta'limda davomiylik va uzviylikni ta'minlash, oliy ta'limni



maktab ta'limi bilan bog'lab borish, o'zbek bolalar adabiyoti durdonalarini targ'ib qilish bo'lim a'zolarining doimiy diqqat markazida bo'lib keldi. Bo'limda shu kabi masalalarga oid ilmiy-metodik materiallar ham tayyorlangan.

“O'zbek tili va bolalar adabiyoti” bo'limida filologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar A.Xalilbekov, A.Abdullayev, D.Qozoqov, o'qituvchi M.Jamolova, F.Karimovalar faoliyat olib borganlar. Har oyda bir marta “Imlo” to'garagi mashg'ulotlari o'tkazilib borildi. Bo'lim a'zolari viloyat aholisi va ayniqsa, yoshlar o'rtasida ham bir qator ibratli ishlarni amalga oshirdilar.

Bo'lim o'qituvchilarining tashabbusi bilan o'zbek tili hamda bolalar adabiyoti bo'yicha o'quv xonalari tashkil qilindi va bu xonalar ko'rsatmali qurollar bilan tobora boyitib borildi.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ASHULA VA MUSIQA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun musiqani bilish, tushunish, shu bilan birga, o'zbek xalq cholg'u asboblariidan birini chala olish, mustaqil musiqaviy mashq qilish muhim ahamiyatga ega. Fakultet talabalari bilan ashula va musiqa metodikasidan olib borilayotgan ma'ruza mashg'ulotlari yakkama-yakka ijrochilik san'ati va mahoratini egallashga oid olib borilayotgan amaliy ishlar alohida diqqatga sazovordir.

1990-1991-o'quv yilida fakultet bazasida mazkur kafedra tashkil etildi. Kafedraning yuqori malakali o'qituvchilaridan A.Komilov, M.Dadaboyev, T.Dadaboyev, N.Abdullayev, N.Doliyev, M.Turdiyevlar talabalarning ijrochilik mahorati, drijyorlik va raqs elementlarini puxta egallab olishlariga juda katta e'tibor berayotirlar. Kafedrada ilmiy—nazariy, metodik yig'ilishlar, ochiq darslar muhokamasi muntazam o'tkazilib boridi.

Kafedra a'zolari "Istiqbol" nomli talabalar ansamblini tashkil qilganlar. Unga dutorchi qizlar, rubobchi qizlar to'garagi a'zolari birlashgan bo'lib, ular o'zlarining konsert repertuarlarini boyitib bordilar. O'tgan davr ichida "Istiqbol" ansambli qatnashchilari faqat fakultet doirasidagina emas, balki institut miqyosida o'tkazilgan barcha ommaviy—ko'ngilochar tadbirlarda, turli bayram va kechalarda o'z mahoratlarini namoyish etib, ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'ldilar.

Kafedra a'zolari tomonidan asosiy mashg'ulotlar musiqa xonasida olib borildi. Xonada musiqa asboblari forto- piano, qashqar ruboblar, dutorlar, afg'on rubobi hamda metallafon, kissafon, doiracha, buben kabi bolalar musiqa asboblari mavjud. Bulardan tashqari, bolalar bog'chasida musiqa o'tish jarayonida foydalaniladigan qo'g'irchoq, o'yinchoq, har xil tinglatiladigan va kuylanadigan asarlar mazmuniga mos rasmlar, plakatlar, bolalar bastakorlarining portretlari qo'yilgan. Shu bilan birga, darsning musiqa savodi qismida foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar va talabalar tomonidan amaliy mashg'ulotlarda tayyorlangan qo'l ishlaridan namunalari saqlanmoqda. Amaliyotchi—talabalarga yordam uchun bolalar bog'chasida musiqa mashg'uloti va boshlang'ich sinflarni musiqa darslari uchun ish rejalari va bir mashg'ulot reja—konspektlarining namunalari berilgan. Bolalar bog'chasining yuqori gruppalarida va boshlang'ich sinflarda bolalarga qo'shiq o'rgatishda urma musiqa asboblari foydalanish yaxshi natija berishini ko'zda tutib talabalar bu musiqa asboblari qanday foydalanishlari kerakligi ko'rsatilgan. Ana shu xonada musiqa muallimlari talabalar bilan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar jarayonida musiqa asboblari chalish malakalari ustida ish olib bordilar.

Talabalarining malakaviy amaliyoti boshlanishi oldidan musiqa o'qituvchilari namunalari darslar o'tib berdilar. Shundan so'ng talabalar qashqar rubobi, forttopiano, texnika vositalari va tayyorlangan

ko'rsatmali qurollardan atroflicha foydalanishni hamda musiqa darslari va mashg'ulotlari uchun qanday hujjatlar yuritilishini bilib oladilar.

Kafedra a'zolari musiqa darslarini o'tishda ta'limniig texnika vositalaridan foydalanish uchun atroflicha imkoniyatga egadirlar. Shu maqsadda kafedraga I-VII sinf musiqa dasturiga muvofiq keladigan asarlar yozilgan "Allegro" tilidagi magnit lentalarini olindi. Bundan tashqari, musiqa muallimlari mashg'ulotlar jarayonida "Ashula aytish qoidalari", "Bola ovozi shakllanishdagi asosiy davrlar", "Alteratsiya va dinamik belgilar", "Qashqar rubobining tuzilishi" kabi zarur ko'rsatmali materiallar va notali asarlardan o'rinli foydalanmoqdalar. Buning singari vositalar musiqa darslari samaradorligini oshirishga juda katta yordam bermoqda.

Kafedra a'zolari yaqiniga qadar "Boshlang'ich sinflarda musiqa va ashula darslari samaradorligini oshirish" nomli kompleks tadqiqot ishlarini olib bordilar. Xuddi shu nomdagi metodik qo'llanma ham nashr etilgan.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA RUS TILI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

Kafedra 1987-yilda tashkil topgan bo'lib, uning asosiy maqsadi, birinchidan, fakultetda ta'lim olayotgan talabalarga rus tilida erkin so'zlashishni o'rgatish; ikkinchidan, boshlang'ich sinflarda rus tili darsini o'tish metodikasidan saboq berishdir. Bundan tashqari, kafedra o'z faoliyati davomida fakultetning rus guruhida tahsil olgan 70 nafardan ziyod talabalarni rus maktablarining boshlang'ich sinflarida ishlash uchun tayyorlashga o'z hissasini qo'shdi.

1987—1989-yillarda kafedraga pedagogika fanlari nomzodi, dotsent A.Xoshimov rahbarlik qildi. Keyinchalik, to "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasiga qo'shilib ketguniga qadar, ya'ni 1990-yildan kafedra a'zolari faoliyatini pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Uluxujayev boshqarib keldi. Turli yillarda kafedrada L.Djalalova, L.A.Grishichkina, L.V.Gorayeva, D.Karimovalar faoliyat ko'rsatishgan.

**“BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI VA  
METODIKASI” KAFEDRASI BUGUNGI KUNDA  
“BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI”** nomi bilan faoliyat olib bormoqda va o'zining bir qator yetakchi olimlari, murabbiy mutaxassislariga ega.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT**

1960—1974-yillarda o'z faoliyatini faqat yuksak malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga bag'ishlangan “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasini 1980-yilda qayta tashkil etildi. Dastlabki kafedraning tashkil topishida ham, qayta tashkil etilishida ham filologiya fanlari nomzodi, dotsent N. Boboxo'jayevning xizmatlari katta bo'ldi. N.Boboxo'jayevdan so'ng kafedrani quyidagi professor-o'qituvchilar boshqarishgan: pedagogika fanlari nomzodi, professor M.Yusupov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent B.Sattorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent D.Qozoqov, psixologiya fanlari nomzodi A.Rahmonov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M.Nishonov, pedagogika fanlari nomzodi, A.Sobirov, pedagogika fanlari nomzodi Yu.Shaamirova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova, fizika-matematika fanlari nomzodi T.Abdullayev, o'qituvchi A.Inomiddinovlar boshqargan. Hozirgi vaqtda kafedra mudiri vazifasini fizika-matematika fanlari nomzodi T.Abdullayev bajarib kelmoqda.

Kafedraning universitetdagi boshqa mavjud kafedralardan farqi shundaki, bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar xilma-xil fanlar bo'yicha jamlangan. Masalan, “Ona tili va uni o'qitish metodikasi”,

“Matematika va uni o‘qitish metodikasi”, “Bolalar adabiyoti”, “Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi”, “Mehnat o‘qitish metodikasi” hamda boshqa fanlar ana shular jumlasidandir. Talabalarga mazkur fanlardan ta‘lim-tarbiya berish samaradorligini oshirish yuzasidan kafedra aniq ish rejalariga ega. Bu sohada kafedrada ilmiy-metodik ishlar muntazam amalga oshirilmoqda.

Kafedrada har bir xodimning o‘z ishiga ijodiy, mustaqil, tashabbuskorlik bilan yondashishi tashkil etilgan. Kafedra a‘zolarining har biri o‘zlarining ish yuritish metodikasi dasturlariga ega. Kafedrada yosh o‘qituvchilarga qulay imkoniyatlar yaratilgan. Natijada, kafedraning yosh va iqtidorli o‘qituvchilari bugungi kunda doktorlik dissertatsiyalari ustida ish olib bormoqdalar. Talaba-yoshlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish hamda professor-o‘qituvchilarning an‘anaviy ilmiy-nazariy konferensiyalarida ilmiy, nazariy va metodik xarakterda namunali ma‘ruzalar qilish kafedra a‘zolarining doimiy faoliyatiga aylangan.

Kafedra Namangan shahridagi ko‘plab umumta‘lim maktablari, Norin tumanidagi KHK bilan mustahkam aloqa bog‘lagan bu maskanda kafedraning ko‘chma yig‘ilishlari o‘tkazilib, o‘qituvchilarga ilmiy-metodik yordam ko‘rsatilmoqda.

Hozirda kafedrada 21 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat olib bormoqda. Ularning 5 nafarini fan nomzodi, 3 nafarini dotsent, 16 nafarini esa o‘qituvchilar tashkil etadi.

Ular quyidagilar:

N.Uluxujayev – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,  
M.Xolmurodov – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent,  
M.Hamidova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Yu.Shaamirova – pedagogika fanlari nomzodi, T.Abdullayev– fizika-matematika fanlari nomzodi, A.Inomiddinov, B.Abdurahmonov, R.Lutfetdinova,

N.Qambarov, G.Insopova, N.Abdullayeva, B.Qo'chqorov, N.Qirg'izov, Sh.Xo'jamberdiyeva, M.Rahimova, M.Shermatova, M.To'raboyeva, Sh.Ma'qulov, G'.Hamdamov, A.Toshxonov, N.Sharipovalar esa o'qituvchi sifatida ter to'kmoqdalar.

Kafedrada "Ona tili va adabiyoti", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Matematika o'qitish metodikasi", "Boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" kabi masalalari tadqiq etiladi. Jumladan, kafedra dotsentlari N.Uluxujaev "Развитие связной речи учащихся начальных классов с полиэтническим составом", M.Xolmurodov "Matematikaning xalq xo'jaligida qo'llanishi", M.Hamidova esa "Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi", T.Abdullayev "Bog'liqli Bernulli tasodifiy miqdorlar uchun markaziy limit teorema", kafedra o'qituvchilari A.Qurbonov "Sarlavhalarning "Xamsa" badiiyatida tutgan o'rmi", N.Abdullayeva "Sinfdan tashqari o'qish darslarida integratsiyalashgan ta'lim", B.Qo'chqorov "Devonu lug'otit turk"da milliy pedagogik qadriyatlarning ifodalanishi", R.Lutfetdinova "Boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar vositasida o'quvchilar nutqini o'stirish", Sh.Xo'jamberdiyeva "Ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatish usullari", M.To'raboyeva "O'zbek tilida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi", M.Shermatova "Boshlang'ich sinflarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi" mavzularida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Kafedradagi ilmiy-tadqiqot ishlariga talabalarni keng jalb etilganligi, bundan tashqari bitiruv-malakaviy ishlari mavzularining ilmiy va ayni vaqtda dolzarb bo'lishiga alohida yondashilayotganligi bu quvonarli holat. Bunda ustoz-shogird an'anasi munosib davom etadi. Ilmiy jarayonda ular bir-birlarini to'ldirib boradilar. Hattoki, kafedra dotsentlari, pedagogika fanlari nomzodi N.Uluxujayev hamda filologiya fanlari nomzodi M.Hamidovalar "Bitiruv malakaviy ishlarni



bajarish va himoya qilish” nomli uslubiy ko’rsatma (uchinchi qayta ishlangan, takomillashtirilgan nashri) tayyorlashgan.

Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasini viloyatdagi bir necha kolleji va maktablar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi. Jumladan, Norin sanoat va servis kolleji kafedraga birlashtirilgan bo’lib, mazkur kollejda kafedraning filiali ochilgan. Ushbu filial kafedra mudiri vazifasini kafedra o’qituvchisi B.Abdurahmonov 2012-yildan beri bajarib keladi. Bundan tashqari kafedra Namangan shahar pedagogika kolleji, Namangan tumani pedagogika kolleji, Tepaqo’rg’on pedagogika va servis kolleji, namangan shahridagi 7, 11, 13, 27, 31, 52-umumta’lim maktablari, shuningdek, Nizomiy nomidagi TDPU va Andijon davlat universiteti, Qo’qon davlat pedagogika institutlari bilan hamkorlik qilib keladi.

“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasini qoshida “Ilhom chashmalari” (filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova rahbarligida), “Mohir qo’llar” (o’qituvchi M.Shermatova rahbarligida), “Russkaya rech” (o’qituvchi B.Abdurahmonov rahbarligida), “Aykido” (o’qituvchi N.Qambarov rahbarligida), “Yosh matematik” (fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent M.Holmurodov, o’qituvchilar G’.Hamdamov, A.Toshxonovlar rahbarligida), “Yosh notiq” (o’qituvchilar R.Lutfetdinova va Sh.Xo’jamberdiyeva rahbarligida) kabi to’garaklar faoliyat olib bormoqda.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASIDA OLIB BORILAYOTGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR**

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedra professor-o'qituvchilari talabalar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida “Men tanlagan kasb”, “Ustozlarni qadrlaymiz”, “Talaba yoshlar orasida erta turmushga qurish holatlarining oldini olish”, “Til-millat ko'zgusi”, “Diniy ekstremizm, terrorizm-tinchlik va taraqqiyot dushmani”, “Navoiy nazmida komil inson”, “Zahiriddin Muhammad Bobur-shoir sarkarda va buyuk davlat arbobi”, “Ustozlar -el e'zozida!”, “Mashrabxonlik”, “Men sevgan adib”, “Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchi” mavzusida o'tkazilgan “Balli qizlar” tanlovi, “Bilimdonlar bellashuvi”, “Inson xotirasi muqaddas” mavzularida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tayyorlab o'tkazib kelmoqdalar. Shu bilan birga, “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Yagonasan muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida go'zal O'zbekistonim!”, “Alisher Navoiy-g'azal mulkingning sultoni”, “Men tanlagan kasb”, “Talaba qanday axloqqa ega bo'lishi kerak?”, “Talabaning kiyinish madaniyati”, “Hurriyatning huquqiy himoyachisi”, “O'zbek yigiti-mustaqillik posboni”, “An'analarni abadiyatga aylantirgan ayyom” mavzularida insholar tanlovini muntazam ravishda o'tkazib kelmoqdalar.

O'quv yili davomida kafedra professor-o'qituvchilari Namangan davlat universiteti talabalar turar joyida navbatchilik qilish bilan birgalikda “Mehnat insonni ulug'laydi”, “Ona tilim-iftixorim!”, “Konstitutsiya-baxtimiz Qomusi”, “Ogohlik-davr talabi” mavzularida davra suhbatlarini tayyorlab o'tkazib kelmoqdalar.

**“1-oktabr ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan  
“Ustozlarni qadrlaymiz” mavzusida o'tkazilgan tadbir**





**“Til-millat ko'zgusi” mavzusida o'tkazilgan davra suhbat**



**“Talaba yoshlar orasida erta turmush qurish holatlarining oldini olish” mavzusiida o‘tkazilgan davra suhbat**



**“Talaba qanday axloqqa ega bo‘lishi kerak?”, “Talabaning kiyinish madaniyati” mavzularida o‘tkazilgan davra suhbat**



## “Mashrabxonlik” tadbiri



**O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xotirasiga  
bag'ishlangan tadbir**



**“Talabalar qasamyodi” tadbiri**



**“Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchi” mavzusida  
o‘tkazilgan “Balli qizlar” tanlovi**



**“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini professor-o‘qituvchilari  
bilan nafaqadagi professor-o‘qituvchilar xonadoniga tashrif  
buyurib, ular holidan muntazam ravishda xabar olib turiladi**





**“Ustozlar-el e`zozida” mavzusida o`tkazilgan tadbir**





**“Tinchlik – taraqqiyot garovidir” mavzusida oʻtkazilgan  
madaniy-maʼrifiy tadbir**





**“Bilimdonlar bellashuvi” musobaqasidan lavha**





**Musa Toshmuhammad o'g'li Oybek tavalludi munosabati bilan "Men sevgan adib" mavzusida o'tkazilgan tadbirdan lavha**



**O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning porloq xotirasiga bag'ishlangan "Xotira darsi"**







**“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi professor-  
o’qituvchilarining universitetda uzoq yillar faoliyat olib borgan va  
bugungi kunda nafaqa gashtini surayotgan xodimlar holidan xabar  
olish bo’yicha olib borgan ishlaridan namuna**



**Namangan davlat universiteti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası professor-o’qituvchilari Namangan shahridagi 26-mehribonlik uylariga tashrif buyurib, boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo’nalishi talabalari tomonidan “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” fanidan mustaqil ta’lim uchun tayyorlagan o’yinchoqlarni bolalarga sovg’a sifatida topshirish jarayonidan lavha**



**Namangan davlat universiteti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası professor-o’qituvchilari Namangan shahridagi 26-mehribonlik uylariga tashrif buyurib, boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo’nalishi talabalari tomonidan “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” fanidan mustaqil ta’lim uchun tayyorlagan o’yinchoqlarni bolalarga sovg’a sifatida topshirish jarayonidan lavha**





**“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası professor–o’qituvchilari bilan birga “Yagonasan muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqati senga baxshida go’zla O’zbekistonim!”, “Alisher Navoiy–g’azal mulkining sultoni”, “Men tanlagan kasb”, Qarisi bor uyning parisi bor” mavzularda o’tkazilgan insholar tanlovi**



**“Hurriyatning huquqiy timsoli” mavzusida o’tkazilgan insholar tanlovi**



**“O‘zbek yigiti-mustqillik posboni” mavzusida o‘tkazilgan  
insholar tanlovi**





**“An`analarni abadiyatga aylantirgan ayyom” mavzusida  
o`tkazilgan insholar tanlovi:**



Namangan davlat universiteti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasida professor-o’qituvchilarining “9-may Xotira va qadrlash kuni” ga bag’ishlab “Inson qadri va uning xotirasi muqaddas” mavzusida kompleks tadbirlarni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha olib borgan tadbirning ijrosi yuzasidan Namangan viloyati Namangan shahridagi Haqiqat MFY, Temir ko’chasi, 23 b-uyda istiqomat qilayotgan Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisi Sodiqov Jabborxon ota xonadonidagi uchrashuvdan lavha




## OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK





## KORPORATIV HAMKORLIK



**“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasiga biriktirilgan Norin sanoat va servis kollejida quyidagi ishlarni muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda**

**Norin sanoat-servis kollejida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan “Konstitutsiya –adolat ko‘zgusi”, “Konstitutsiya-baxtimiz qomusi”, “Barkamol avlod ta‘lim-tarbiyasida Konstitutsiyaning o‘rni”, mavzularida o‘tkazilgan tadbir**





**“Alisher Navoiy she’riyat mulkining sultoni” mavzusida o’tkazilgan tadbir**





**“Zahiriddin Muhammad Bobur-shoir sarkarda va buyuk davlat arbobi” mavzusida o’tkazilgan tadbir**



**“Yoshlar tarbiyasida Vatan tuyg’usini shakllantirish” mavzusida  
o’tkazilgan tadbir**



**“Yangi pedagogik texnologiyalarni o’quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb masala” mavzusiga bag’ishlab o’tkazilgan seminar-trening**



**“Axborot ta’lim texnologiyalari” va “Ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o’rni” mavzularida o’tkazilgan seminar-trening**



**“Matematika fanini qishloq xo’jaligida qo’llanishi” mavzusida  
o’tkazilgan davra suhbat**



## **“BOSHLANG’ICH TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI” MAVZUSIDA OLIB BORILAYOTGAN ILMIY-AMALIY ANJUMANLAR**

Shu bilan birga, “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası professor-o’qituvchilari har yili “Boshlang’ich ta’limning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusida ilmiy-nazariy anjumanlarni o’tkazib kelmoqda. Jumladan, 2003-yilning aprel oyida hamda 2011-yilning 18-19-noyabr kunlari “Boshlang’ich ta’limning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani bo’lib o’tdi. 2011-yil bo’lib o’tgan anjuman Namangan davlat universiteti Ilmiy ishlar bo’yicha prorektori M.Qodirxonovning kirish so’zi bilan ochib berildi. “Boshlang’ich ta’lim” jurnali bosh muharriri Z.Shokirova, boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo’nalishi talabasi L.Jumanazarova hamda taklif etilgan mehmonlarning qiziqarli ma’ruzalari bilan yaqindan tanishildi.





2016-yil “Boshlang’ich ta’limga zamonaviy yondashuv: muammo va yechimlar” mavzusida internet ilmiy konferensiyasi bo’lib o’tdi. Ushbu konferensiyada respublika va chet eldagi mutaxassislar hamda talabalarning maqolalari, tezlari o’rin olgan.

# KAFEDRADA FAOLIYAT KO'RSATGAN VA KO'RSATAYOTGAN PROFESSOR O'QITUVCHILAR

**MAHMUDJON YUSUPOV**  
**(1938-2005)**



Mahmudjon Yusupov – professor, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha jumhuriyatda ko'zga ko'ringan metodist olim, O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi.

Serqirra fan va madaniyat olamida insoniyat yaratgan bilim va tajribalardan bahramand bo'lib, uning durdonalarini yosh avlodga muvaffaqiyatli yetkazish har bir o'qituvchining muqaddas burchidir. Fakultetda ana shu xayrli vazifani sidqidildan bajarib kelgan, o'zining ko'p yillik halol mehnati, ishchanligi va bilimdonligi, kamtarligi hamda shogirdlariga mehribonligi bilan hamkasblari qalbidan chuqur joy olgan murabbiylardan biri professor Mahmudjon Yusupovdir.

Mahmudjon Yusupov 1938-yilda Namangan shahrida tug'ilgan, pedagogika fanlari nomzodi, professor.

U Namangan davlat pedagogika institutining boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetini tugatgach, ijodkor-pedagog

sifatida 1961-yildan Namangan shahridagi 3-o`rta maktabda boshlang`ich sinf o`qituvchisi bo`lib ishlab yurgan kezlari dayoq el nazariga tushdi. Ilmiy-ijodiy izlanishlarga bo`lgan ishtiyoq tufayli ta`lim samaradorligini oshirish uslublariga doir ma`ruzalari bilan metodik birlashma yig`ilishlarida, muallimlarning shahar, viloyat va jumhuriyat pedagogik o`qishlarida faol qatnashdi. Ixlosmandlarining istagi va takliflarini qog`ozga tushirdi. Ilk maqolasi "Birinchi sinflarda arifmetika o`qitish tajribasidan" deb nomlangan bo`lib, "Sovet maktabi" oynomasining 1966-yil dekabr sonida yoritildi. Uning juda ko`plab maqolalari boshlang`ich ta`limning dolzarb mavzulariga bag`ishlanganligi tufayli muallimlarning diqqat-e`tiborini o`ziga tortdi. Natijada M.Yusupov jumhuriyatimizning boshlang`ich ta`lim sohasidagi yetuk mutaxassis olimlari, darsliklarning mualliflari – professor K.Qosimova, M.R.Lvov, pedagogika fanlari nomzodlari Q.Abdullayeva, M.G`ulomov, N.I.Bikboyeva, G.Ramzayevalar bilan yaqindan tanishish, ular bilan doimiy muloqotda bo`lish imkoniyatiga erishdi.

Mahmudjon Yusupov 1982-yildan Namangan davlat universitetida faoliyat olib bora boshladi. Izlanuvchan pedagog M.Yusupov 1970-1980-yillarda Namangan viloyati shahar va tumanlaridagi 30 dan ortiq o`rta maktabning boshlang`ich sinflarida tajriba o`tkazish ishlarini olib borib, zarur materiallarni umumlashtirgan holda 1980-yilda "Bo`sh o`zlashtirayotgan o`quvchilar bilan ishlash uslublari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo`ldi. Mazkur tadqiqot materiallari hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga molikdir.

Olimning ijodiy-ilmiy ishlari keyingi yillarda, ayniqsa, serqirra va mazmundor tus oldi, uning 50 dan ortiq ilmiy metodik maqolalari va asarlari birin-ketin nashr etildi. Jumladan, "Birinchi sinfda bo`sh o`zlashtirayotgan o`quvchilar bilan ishlash", "O`qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish" nomli risolalari, hamkasblari bilan



hamkorlikda yaratgan “Savod o’rgatish darslari”, “Diktantlar to’plami”, “O’quv kuni uzaytirilgan gruppalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish”, “To’rtinchi sinfda o’qish darslari” nomli metodik qo’llanmalari respublikamiz o’qituvchilari tomonidan iliq kutib olindi. Muallifning, ayniqsa, ikkinchi sinf uchun yaratgan “O’qish kitobi” darsligi esa o’zining mukammalligi, tarbiyaviy g’oyalar mujassamlashgan turli vakillarga mansub matnlarni o’z ichiga olganligi bilan alohida e’tiborga sazovordir.

Mahmudjon Yusupov tomonidan tayyorlangan uslubiy ishlardan respublikamiz maktablarida hamda oliy o’quv yurtlarining boshlang’ich ta’lim pedagogikasi va metodikasi fakultetlarida foydalanilmoqda. Shuning uchun u boshlang’ich ta’limni rivojlantirish bo’yicha mustaqil respublikamizda chuqur hurmat va e’tiborga sazovor bo’lgan olimlardan biri sifatida o’rin ola oldi. U uzoq yillar universitetda ko’plab fan nomzodlari yetishtirishga katta hissa qo’shdi. Bu xususida kafedraning nafaqadagi katta o’qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi M.Jamolova ham keng to’xtalib shunday fikrlarni bildirib o’tadi: “Ustoz Mahmudjon Yusupov ajoyib inson hamda jonkuyar kafedra mudiri edilar. Ular har bir kafedra yig’ilishini kafedrada boshlab, uning qaror qismini albatta kafedraning biror bir professor-o’qituvchisining uyida kamtarona o’tirish tashkil qilib yakunlar edilar. Bu kabi yig’ilishlar albatta bir oyda bir marotaba bo’lar edi. Natijada kafedraning professor-o’qituvchilari bir-birlarining uyini ko’rar, yashash tarzidan voqif bo’lar edi. Bu esa kafedra professor-o’qituvchilari o’rtasidagi hamjihatlikni ta’minlar edi. Shu bilan birga, ilmiy ish qilmagan o’qituvchilar uchun haftada bir kun metod kuni ajratib, ilmiy rahbari yo’q o’qituvchilarni o’zlari Toshkentga olib borib, ilmiy rahbar topib, mavzusini tasdiqlatib olishda yordamlashar, metod kuni esa albatta shu o’qituvchini Toshkentga borib, ilmiy rahbari bilan ilmiy ishi ustida izlanishni davom ettirishga undar, hattoki, ayrim hollarda o’zi erinmay Toshkentga borib,

uni ilmiy rabar bilan uchrashgan yoki uchrashmaganligini ham tekshirib kelishdan erinmas edi. Albatta ustoz M.Yusupovning mana shunday sa'y harakatlari zoye ketmay men, F.Karimova, Sh.Ahmedov, M.Abdurahmonov kabi o'qituvchilar fan nomzodligi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldik". Shu bilan birga, M.Yusupov ko'p yillar davomida boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasiga mudirlik qildi.

M.Yusupov fakultet talabalariga "Ona tili o'qitish metodikasi" fanidan saboq berar ekan, o'zining ko'p yillik mashaqqatli va sermahsul muallimlik faoliyatiga, maktablardagi tajribali, izlanuvchan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilg'or ish uslublariga tayandi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni esa fanning eng so'nggi yutuqlariga bog'lab o'tishga harakat qildi. "Metodika ta'limi ko'p qirrali bilim, malaka va uzluksiz izlanishni talab qiladi", -deb ta'kidlaydi M.Yusupov. Chindan ham "Ona tili o'qitish metodikasi" fanidan saboq berish uchun uni bilishning o'zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun ona tilidan beriladigan bilimlar hajmi, bu bilimlarni talabalar ongiga yetkaza olish mahoratini va yo'llarini ham mufassal bilish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir M.Yusupovning ona tili o'qitish metodikasi sohasidagi samarali ilmiy—pedagogik xizmatlarini hisobga olib, unga 1990-yilda professorlik unvoni berildi.

Professor M.Yusupov "Xalq maorifi a'lochisi" nishoni, O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining 10 dan ortiq Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. U O'zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik partiyasi a'zosi.

U O'rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgandan so'ng, 1947-yildan boshlab ko'p yillar Namangan pedagogika bilim yurtida "O'zbek tili va adabiyoti" hamda "Ona tili o'qitish metodikasi" fanlaridan dars berdi. Viloyatimiz maktablariga yuksak malakali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlab yetkazishga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Biroq o'sha yillarda o'zbek maktablarining boshlang'ich sinflari uchun ona tili o'qitish metodikasi ishlab chiqilmagan edi. Bu holat ishda anchagina qiyinchilik tug'dirishi tabiiy edi. Ana shuni hisobga olgan holda A.Xalilbekov ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga ijodiy yondashdi, ona tili o'qitish metodikasining yaratilishiga o'zining hissasini qo'shdi.

Alixon Xalilbekov 1956-1960-yillarda viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish institutida o'zbek tili va adabiyoti kabinetini boshqardi, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, maktab o'qituvchilariga metodik yordam berish ishlari bilan shug'ullandi. metodik to'plamlar chiqardi. Natijada kabinet ish tajribasi respublikamiz miqyosida ommalashtirildi.

Bir necha yillar o'qituvchilar malakasini takomillashtirish instituti o'zbek tili va adabiyoti bo'limining mudiri vazifasida ishladi. Bu vazifada ilg'or o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirishga alohida e'tibor berdi. "Ilg'or tajribalar", "O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining ish tajribasidan" nomli ikki uslubiy kitobni nashr ettirdi. Uning respublika pedagogik o'qishlarida o'qigan shu mavzudagi ma'ruzalari mukofotli o'ringa sazovor qilindi.

1963-yildan boshlab 23 yil davomida Namangan shahridagi 43-o'rta maktabda direktor lavozimida ishladi. Uning rahbarligida maktab respublikaga tanilgan ta'lim-tarbiya o'chog'iga aylandi. Maktab jamoasining tajribalari respublika miqyosidagi seminarlarda, matbuot nashrlari orqali ommalashtirildi. Maktab ish tajribasi Pedagogika fanlar

akademiyasi ilmiy sessiyasida tinglandi. Maktab Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi ishtirokchisi bo'ldi.



Iqtidorli olim Alixon Xalilbekov Pedagogika fakultetining boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi kafedrasida 1985-yildan boshlab ishlay boshladi. Uning 200 dan ortiq ilmiy, pedagogik va metodik maqolalari bo'lib, ulardan 30 tasi turli to'plamlarda va jurnallarda bosilib chiqqan. "O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining ish tajribalaridan" (1957-yil) nomli metodik to'plam, "Nodim", "Tanlangan asarlar" (1964-yil), "O'zbek adabiyoti" (V tom, 1967), "O'zbek adabiyoti tarixi" (V tom, 1980) kitoblarini ko'rsatish mumkin.



1985-yilda Namangan davlat universitetiga o'n yillik ish staji bilan katta o'qituvchilikka qabul qilingan Alixon Xalilbekov o'zining samarali mehnatlari evaziga dotsentlik, 2008-yildan professorlik lavozimlariga ko'tarildi. U boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'z ixtisosi bo'yicha dars berib keldi.

A.Xalilbekov ilmiy –ijodiy ishlar bilan muntazam shug'ullanib keldi. 1968-yilda u O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti ilmiy kengashida "Shoir Nodim Namangoniyning hayoti va ijodi" mavzusida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlab, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi tufayli Nodim nomi adabiyot tarixidagi o'z munosib o'rnini oldi. XIX asrning ikkinchi yarmidagi adabiyot haqida yozilgan maqola va kitoblarda boshqa taniqli shoirlar qatorida tilga olinadigan bo'ldi.



Alixon Xalilbekov universitet, shahar va viloyat ilmiy, ma'naviy, madaniy va adabiy hayotida, jamoat ishlarida faol ishtirok etib keldi.

Ko'p yillik samarali xizmatlari uchun Alixon Xalilbekov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, qator medallar, faxriy unvonlardan tashqari, "Shuhrat", T.Qori-Niyoziy va N.Krupskaya nomidagi mukofotlar, O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining Faxriy yorlig'i, Xalq ta'limi a'lochisi, "Oliy va o'rta maxsus ta'lim fidoyisi" nishonlari, viloyat hokimi, vazirlik hamda boshqa yuqori tashkilotlarning qator Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Xalilbekov Alixon Azamovich 2015-yil mart oyida vafot etdi.



## ADHAMJON ABDULLAYEV

(1927-1995)



O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Adhamjon Abdullayev 1927-yilning 15-oktabrida Namangan shahrida tavallud topgan. 1943-yilda Namangan pedagogika bilim yurtini tugatgan. 1953-yilda Namangan o'qituvchilar tayyorlash institutini, 1957-yilda esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tamomladi. 1943-1963-yillar davomida Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on tumanlaridagi maktablarida o'zbek tili va adabiyoti fanlaridan yosh avlodga saboq berdi. Shu bilan birga, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori, Kosonsoy tuman xalq maorifi inspektori lavozimlarida ham faoliyat ko'rsatdi.

Tilshunos olim Adhamjon Abdullayev shogirdlari qalbidan munosib o'rin olgan bilimdon va kamtar ustozlardan.

Adhamjon Abdullayevning serqirra pedagogik faoliyatida hozirgi kun xalq ta'limi tizimi va maktabni qayta qurish talablariga mos keladigan bir qator dastlabki tajribalarni uchratishimiz mumkin. Masalan, u 1958-1963-yillarda Kosonsoy tumanidagi 22-o'rta maktabda direktorlik lavozimida ishlagan davrda viloyatda birinchilar qatori fanlar

bo'yicha namunali kabinetlar tashkil etish tashabbuskori bo'ldi. Bu fanlarni o'qitishda kabinet tizimiga o'tish borasidagi ilk qadam edi.

1963-yilning kuzida Adhamjon Abdullayevni Namangan davlat universitetining o'zbek tilshunoslik kafedrasiga ishga taklif qilindi. 1970-yilning kuzida u "O'zbek tilida ma'no ko'chirishning fonetik va morfologik usullari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini filologiya fanlari doktori, professor Azimjon Hojiyev rahbarligida muvaffaqiyatli himoya qildi. 1976-1982-yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetining sirtqi bo'lim dekani lavozimlarida ishladi.

Adhamjon Abdullayev uzoq yillar boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetining kunduzgi va sirtqi bo'limlarida talabalarga "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili" fanidan dars berib keldi. U "O'zbek tili grammatikasi va stilistikasi masalalari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanishlarini olib bordi. Natijada uning ushbu masalaga bag'ishlangan 2 ta monografiyasi "Fan" nashriyatida chop etildi. Shuningdek, uning 15 dan ortiq kitoblari va ilmiy maqolalari bo'lib, ayniqsa, 1987-yilda "Fan" nashriyoti tomonidan "O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintetik usuli" nomli monografiyasining ko'p nusxada nashr etilishi o'zbek tilshunosligini tadqiq etish va o'rganish sohasida muhim voqea bo'ldi.

Tilshunos olim Adhamjon Abdullayevning 25 dan ortiq ilmiy, ilmiy-metodik maqolalari markaziy va mahalliy jurnal hamda ilmiy ishlar to'plamlarida e'lon qilingan.

Adhamjon Abdullayev jonkuyar pedagog, talabalarning eng yaqin, sevimli ustozlaridan biridir. Uning pedagogik faoliyati hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" nishoni, "Shavkatli mehnati uchun" (1954), "Mehnatda o'mak ko'rsatgani uchun" (1958) medallari bilan mukofotlandi.

Olijanob muallim, zahmatkash inson Adhamjon Abdullayevning



xotirasi do'stlari, hamkasblari qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

## **NURIDDIN BOBOXO'JAYEV**

**(1929-1999)**

Nuriddin Boboxo'jayeV 1929-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. U 1948-yili Farg'ona pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, uni 1953-yilda bitirdi. 1954-yildan Namangan shahar partiya qo'mitasining targ'ibot-tashviqot bo'limida ma'ruzachi bo'lib ishlay boshlaydi. 1958-1960-yillarda gazetada madaniyat bo'limi mudiri vazifasida faoliyat ko'rsatadi.

1961-1962-yilda Farg'ona oliygo'hida o'qituvchilik qiladi. 1963-yildan esa Namangan pedagogika institutining adabiyot kafedrasida o'qituvchi-assistent, so'ng boshlang'ich ta'lim kafedrasida mudir, institut sirtqi bo'lmida prorektor vazifalarida ishladi.

N.Boboxo'jayeV 1967-1969-yillari Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika instituti qoshidagi 2 yillik maqsadli aspiranturada tahsil oladi. U professor Ozod Sharafiddinov rahbarligida "Zulfiya ijodining badiiy mahorati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1977-yili "Fan" nashriyoti adabiyotshunos olim Nuriddin Boboxo'jayeVning "Badiiy niyat va lirik ifoda" nomli yirik monografiyasini chop etadi. Unda O'zbekiston xalq shoirasi, Zulfiya lirikasi turli aspektlarda o'rganiladi.

Nuriddin Boboxo'jayeV adabiyotshunos olimgina emas, balki taniqli shoir hamdir. Uning "Umid niholi", "Sog'insam, otajonim", "Hamisha borim onajon", "Dorilfununim", "Dilimdagi chiroqlar" kabi she'riy va nasriy to'plamlari bosilib chiqqan.

N.Boboxo'jayeV viloyat, shahar, institut jamoat ishlarida faol ishtirok etardi. U bir necha medallar, "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" nishoni bilan mukofotlangan.

Dramaturg N.Boboxo'jayeVning "O'zing-ko'zim nuri",

“Madaminbek” kabi dramalari sahna yuzini ko’rgan.

1970-1973 – yillarda viloyat yozuvchilar bo’limini ham boshqaradi. Olim, shoir, dramaturg Nuriddin Boboxo’jayevning yoshlar tarbiyasiga oid xizmatlari inobatga olinib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 1992-yilda unga “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiysi” Faxriy unvoni berildi.

Olim N.Boboxo’jayev bir necha ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifidir. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi, dotsent, oilaning jonkuyar sohibi, talabalarning sevimli muallimi, kamtarin inson Nuriddin Boboxo’jayev 1999-yilning dekabrda hayot bilan vidolashdi. Uning yorqin xotirasi oila a’zolari, kasbdoshlari, yoru do’stlari, shogirdlari qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

### NOSIRJON YUSUPOV



Nosirjon Yusupov 1948-yil 27-avgustda Namangan tumanidagi G’irvon qishlog’ida ishchi oilasida tug’ilgan. 1955-1963-yillarda Namangan tumanidagi 36-sakkiz yillik, 1963-1966-yillarda 18-o’rta maktablarda o’qigan. 11-sinfni a’lo baholarga tugatgan. 1967-1972-yillarda Namangan davlat universitetining boshlang’ich ta’lim pedagogikasi va metodikasi fakultetida tahsil olgan.

1975-yilda N.Yusupov Namangan davlat universitetining

pedagogika-psixologiya kafedrasiga ishga taklif etildi. U uzoq yillar pedagogika-psixologiya fani sirlarini o'rganish bilan birga, dotsent A.Asqarov, G'.Ubaydullayev, professor M.N.Skatkin, K.K.Platonov, V.A.Krutetskiy, Yu.V.Gerbeyev singari ko'plab ustozlardan alohida tahsil oldi, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar bilan shug'ullandi. O'zining pedagogik faoliyati davomida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shdi.

N.Yusupov 1975-1981-yillarda universitetning "Pedagog" nomli devoriy gazetasi muharriri, 1981-1984-yillarda ijtimoiy kasblar fakultetining dekani, 1984-1987-yillarda pedagogik amaliyot mudiri, 1997-2001-yillarda boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasining mudiri, pedagogika fakulteti dekani vazifasini bajaruvchi lavozimlarida ishladi.

N.Yusupov 1963-yildan ilmiy-ijodiy ish bilan shug'ullanib kelgan. U "Namangan davlat universiteti olimlari", "Ustoz pedagog", "Talabning pedagogik amaliyoti kundaligi", "Maktab o'quvchisiga psixologik tavsifnoma", "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya", "Boshlang'ich sinflarda ashula va musiqa" kabi 20 dan ortiq ilmiy-uslubiy risola va 50 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. 150 dan ortiq turli mavzudagi maqolalari viloyat va respublika matbuotida chop etilgan.

N.Yusupov o'zining qat'iyatligi va kamtarligi, mehnatsevarligi hamda dilkashligi bilan universitet pedagogik jamoasi, talaba-yoshlar o'rtasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan ustozlardan biri edi. Unga 1990-yilda dotsent vazifasini bajaruvchi, 1991-yilda O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi nishoni, 1997- yilda "Namangan davlat universitetida xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni berilgan. Uzoq yillik ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashdagi zahmatli mehnatlari va o'z kasbiga sadoqati uchun 2002-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Faxriy yorlig'i bilan mukofotlangan.

## QOZOQOV DEHQONBOY QIRG'IZOVICH



D.Qozoqov 1970-yilda Namangan davlat universitetining filologiya fakultetini a'lo baholarga tugatdi. 1970-1971-o'quv yilida Zadaryo (hozirgi Mingbuloq) tumanidagi 20- va 17-o'rtta maktablarda, 1971-1972- o'quv yilida To'raqo'rg'on tumani Shahand qishlog'ida joylashgan 32-sakkiz yillik maktabda, 1972-yildan Oybek nomli 38-o'rtta maktabda o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars berdi.

Maktabda o'qituvchilik qilish bilan birga 1981-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot) ilmiy-tadqiqot institutining folklor bo'limida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun "O'zbekiston xalq satirik qo'shiqlari" mavzusida ilmiy izlanishlar olib bordi va uni 1987-yilda muvaffaqiyatli himoya qildi.

1984-1989-yillarda Namangan davlat universitetining filologiya fakultetida adabiyot fanidan talabalarga saboq bera boshladi. 1989-yilning 25-avgustidan Namangan davlat universitetining "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasiga dotsent lavozimiga ishga taklif etildi va 2011-yilga qadar ushbu kafedrada faoliyat ko'rsatib, yuqori malakali pedagog-o'qituvchilarni tayyorlashga o'z hissasini qo'shib keldi. "Xalq

qo'shiqlarini o'rganish", "Satirik qo'shiqlarning ba'zi xususiyatlari", "Hajv tig'i bilan", "Xalq qo'shiqlaridan bahra olib", "Bizning kuz" she'rini o'rganishda bolalar qo'shiqlaridan foydalanish", "Xalq qo'shiqlari asosida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash". "Ona tili darslarida o'quvchilarni kasbga yo'llash", "Do'stlikni madh etgan asar", "Urush davri xalq hajviy qo'shiqlari" singari ko'plab maqolalari markaziy jurnallarda, ilmiy-metodik to'plamlarda chop etildi. 50 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.

D.Qozoqov 2012-yildan buyon nafaqada.

## **ERKINJON AHMEDOV**

Erkinjon Ahmedov 1937-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. 1944-1955-yillarda Namangan shahridagi 26-o'rta maktabda o'qigan. 1955-1960-yillarda Namangan davlat pedagogika institutining fizika-matematika fakultetida tahsil olgan. 1960-1961-yillarda 26-maktabda matematika fani o'qituvchisi lavozimida ishladi. 1961-1964-yillarda harbiy xizmatni o'tab qaytgach yana shu qadrdon maktabida faoliyat ko'rsatdi.

E.Ahmedov 1966-yilda Namangan davlat pedagogika institutiga o'qituvchi lavozimga ishga taklif etildi. Undagi matematika ilmini yanada chuqurroq egallashga bo'lgan intilish, ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanishga bo'lgan yuksak qiziqish aspiranturaga yetakladi. U 1971-1974-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining matematika o'qitish metodikasi kafedrasida aspiranturada tahsil oldi. Ilmiy izlanishlari oson kechmadi. Nihoyat 1989-yilning may oyida E.Ahmedov matematika fanining eng muhim sohasi "O'rta maktab matematika kursida o'quvchilarni analogiyadan foydalanishga o'rgatish shakllari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

U nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganidan so'ng ham izlanishdan to'xtamadi. Bu esa u tomonidan matbuotda chop ettirilgan ilmiy maqolalarida ham o'z aksini topgan.

E.Ahmedov 1991-yilda O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi nishoni bilan taqdirlangan. U nafaqaga chiqquniga qadar uzoq yillar davomida pedagogika fakultetining boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalariga "Matematika o'qitish metodikasi" fanidan dars berib keldi. Hozirgi kunda esa mehnat faxriysi.

## **SHAVKATJON AHMEDOV**

**(1946-2004)**

Shavkatjon Ahmedov 1946-yil 29-avgustda Namangan viloyati Norin tumanidagi Marg'izor qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan.

1979-yilda Namangan davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetining sirtqi bo'limiga o'qishga kirgan. 1984-yilda universitetni imtiyozli diplom bilan tugatib, 1985-yilning 1-oktabrida Namangan davlat universitetining boshlang'ich ta'lim metodikas. kafedrasiga ishga qabul qilingan. 1986-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining sirtqi bo'lim aspiranturasiga o'qishga kirdi. 1986-yildan boshlab katta laborant va o'qituvchi lavozimlarida ishlab, talabalarga "Bolalar adabiyoti" fanidan dars bergan. 1992-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida "Hamza lirikasining xususiyatlari" ("Devoni Nihoniy" misolida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1993-1997-yillarda Namangan davlat universitetining ilmiy ishlar bo'limi boshlig'i, 1997-1998-yillarda pedagogika fakulteti dekani o'rinbosari vazifasida ishlagan. 1998-yildan boshlab esa "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent vazifalarida ishlagan.



M.O'G'ofurov, O'.Xusanov bilan Halqaro grant asosida yozilgan "Iqtisodiy matematik usullar va modellar" nomli kitobi Respublikaning Oliy o'quv yurtlarida darslik va o'quv qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

U o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom va barkamol bo'lib kamol topishida zamon talablari bilan hamnafas izlanishlari bilan namunali pedagog va ustoz sifatida faoliyatini olib bormoqda. M.Q.Xolmurodov bakalavr va magistr yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga matematik tahlil, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, iqtisodiy matematik usullar va modellar, matematika, oliy matematika asoslari kabi fanlardan saboq berib kelmoqda.

Ustoz Respublika miqyosidagi turli grantlarda ishtirok etib keladi. Xususan, u 2003-2005-yillarda amaliy tadqiqotlar doirasidagi ITD-14 sonli, 2007-2011-yillarda fundamental tadqiqotlar doirasidagi OT-F3-109 sonli, 2012-2013-yillarda innovatsion tadqiqotlar doirasidagi I-2012-36 sonli, hozirda esa bajarilishi 2013-2014-yillarga mo'ljallangan innovatsion tadqiqotlar doirasidagi I-2013-65 sonli grantlar sohibi bo'lib, ilmiy izlanishlar olib borgan va olib bormoqda.

M.Xolmurodov talaba va yosh o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilib ish olib bormoqda, uning rahbarligida 4 ta magistrlik dissertatsiyasi himoya qilindi va juda ko'p talabalarning ilmiy ishlari chop etildi.

Bugungi kunda M.Q.Xolmurodov ko'p marotaba viloyat va shahar hokimliklari hamda universitet rahbariyatining faxriy yorliqlari, esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

M.Q.Xolmurodov hozirda universitet ijtimoiy hayotida o'zining tashkilotchiligi, ishbilarmonligi bilan alohida mavqega ega.

U 152 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar: xususan, 60 ta ilmiy maqolalar (ulardan 16 tasi xorijda, 25 tasi OAK ro'yxatidagi jurnallarda), 38 ta tezis (ulardan 11 tasi xorijdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, 27 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida)lar muallifidir. M.Q.Xolmurodovning keyingi yillardagi ilmiy ishlari matematikaning tibbiyot, iqtisodiyot, geografiya va matematika o'qitish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ularning natijalari jahonning AQSH, Kanada, Germaniya, Angliya, Hindiston, Shvetsiya, Polsha, Rossiya, Belorussiya, Gruziya, Latviya, Litva kabi davlatlarda o'tkazilgan Xalqaro anjumanlarning materiallarida qayd etilgan.



## ULUXUJAYEV NARZULLOXON ZIYOVADINOVICH



Uluxujayev Narzulloxon Ziyovadinovich 1956-yilning 21-avgustida Namangan viloyati Chust tumanidagi Varzik qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, 1973-yil sobiq Namangan davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga qabul qilindi. Oliyohni imtiyozli diplom bilan tugatib, yo'llanma bilan Chust tumani Axcha qishlog'idagi 18-maktabda rus tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lib ishladi. 1978-yilning sentabr oyida ustozlari uni Namangan davlat pedagogika institutiga o'zi tahsil olgan fakultetiga ishga taklif qilishadi va tanlovdan o'tgach, rus tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasida assistent-o'qituvchi lavozimida faoliyat ko'rsata boshlaydi.



1985-yilning dekabr oyida sobiq SSSR Pedagogika Fanlari akademiyasi qoshidagi milliy maktablarda rus tili o'qitish ilmiy-tadqiqot institutining kunduzgi aspiranturasiga kirish imtihonlarini muvaffaqiyati topshiridi va filologiya fanlari doktori, professor V.V.Ivanov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib bordi. 1988-yilning 25-fevralida "Описание как тип монологической речи и методика работы над ним в национальных группах языкового вуза" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Shu yilning aprel oyidan boshlab NDPI rus tili va boshlang'ich sinflarda uni metodikasi kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, kafedra mudiri lavozimlarida ishladi.



1993-yilning aprel oyida N.Uluxujayev O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Rayosatining qarori bilan dotsentlik ilmiy unvoniga ega bo'ldi. 1998-yilgacha pedagogika fakulteti dekanining sirtqi va kunduzgi ta'lim bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishladi.



1998-yilning iyul oyidan 2001-yilgacha Namangan viloyat pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutida

“Jahon tillari” kafedrası mudiri, ilmiy-uslubiy ishlar prorektori lavozimlarida ishladi.

2001-yildan boshlab NamDUga qaytdi va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti lavozimida faoliyat ko'rsata boshladi.



2004-2005-yillarda NamDU uslubiy bo'limini boshqardi Bakalariat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ishch o'quv rejalarini qayta tayyorlash jarayonini boshqardi, o'quv-uslubiy kengash faoliyatini takomillashtirishga hissa qo'shdi. 2005-2006-yillarda universitet o'quv-uslubiy, 2007- yilda ichki nazorat va monitoring bo'limini boshqardi.

Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi respublika ta'lim markazining rus tilini o'qitish shu'basi metodik kengashi a'zosi sifatida N.Uluxujayev boshlang'ich sinf rus tili darsliklarini tahlil qilish va takomillashtirishda faol ishtirok etdi.

Dotsent N.Uluxujayev 40 dan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar, 10 ga yaqin o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratgan. Shu bilan birga, N.Uluxujayev respublika va xorijiy jurnallarda quyidagi ilmiy-uslubiy maqollarini chop ettirdi:

1. Анафорические единства в русской монологической речи // Актуальные проблемы русской и узбекской филологии Наманган, 2006.

2. О периодической форме речи // Традиционные Хамидовские чтения.-Наманган, 2009.

3. Психологическая диагностика профессиональной деятельности учителя // Тезисы докладов научно-практической конференции “Психологические и социально-психологические детерминанты личности”.- Москва, МГУ им. Ломоносова, 2011.

4. Использование образовательных технологий в повышении эффективности уроков внеклассного чтения начальных классов // Новые педагогические технологии. Материалы ХУП международной научно-практической конференции.-Москва, 2014.

5. Гипотаксический период в русской монологической речи // Молодой учёный. Международный научный журнал Казань, 2015.

6. Лингвокультурологический аспект фразеологических единиц узбекского языка // Молодой учёный. Международный научный журнал Казань, 2016.

7. Гипотаксический период с отношениями одновременности // Международный научный журнал “Молодой ученый” Казань, 2016.

N.Ulujayevni kafedraning ilmiy-metodik salohiyatini oshirishda xizmatlari kattadir. Jumladan, “Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va ularni himoya qilish”, “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazish” nomli uslubiy ko'rsatmalarni universitetda birinchilar qatorida tayyorlab taqdim etdi, ulardan universitet miqyosida foydalanilmoqda. Shu bilan bir qatorda, ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirishda kafedraga katta amaliy yordam ko'rsatib kelayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ko'p yillik tajriba natijalarini umumlashtirib, 2015-yilda “Boshlang'ich ta'lim va

sport tarbiyaviy ish yo'nalishini ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlari hamda "Rus tili ta'limi" yo'nalishi talabalari uchun "Сборник упражнени по родному язык" nomli qo'llanma yaratdi.

Hozirgi kunda u talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida ham faol ishtirok etadi. 2014-yildan boshlab NamDU sifat komissiyasini boshqarib kelmoqda.

## RAHMONOV ABDULHAMID

(1962-2006)



Rahmonov Abdulhamid G'aniyevich 1962-yil 1-iyulda Namangan viloyati Uychi tumanidagi Qizilrovot qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. 1969-1979-yillarda Oxunboboyev nomidagi 25-o'rta maktabda tahsil olgan. A.Rahmonov 1979-yil maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Qizilrovot sovxozida qurilish brigadasida ish boshladi. 1980-1982-yillarda harbiy xizmatda bo'ldi. Harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, 1983-yili Toshkent davlat Milliy universitetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirib, 1984-yili falsafa-iqtisod fakultetining psixologiya bo'limi talabasi bo'lgan. Talabalik yillarida universitet hamda respublika anjumanlarida psixologiya fanining dolzarb muammolari bo'yicha o'z

maqolalari bilan faol ishtirok etgan. 1989-yilda Moskvada bo'lib o'tgan xalqaro psixologlar uyushmasining qurultoyida respublikadan yagona talaba delegat sifatida qatnashgan. 1989-yili universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdi va yo'llanma bo'yicha Toshkent mashinasozlik oliygohining Namangan mashinasozlik institutining "Pedagogika, psixologiya va fiziologiya" kafedrasida assistent o'qituvchi lavozimida ish boshladi.



1991-yili esa katta o'qituvchi lavozimiga o'tkazilgan tanlovdan muvaffaqiyatli o'tdi. 1993-yili Toshkent davlat Milliy universitetining kunduzgi bo'lim aspiranturasiga o'qishga kirib, 2000-yil may oyida "Kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining o'quvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. U shu qisqa vaqt ichida 4 ta metodik qo'llanma va tavsianomalar, 15 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi bo'ldi.



2002-yildan ijtimoiy psixologiya kafedrasida faoliyat ko'rsatish bilan birga, oila muammolari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarini olib bordi. 2004-2006-yillarda boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat olib bordi. U 2006-yil avtomobil halokati natijasida vafot etdi.





## MAHMUDJON NISHONOV



Mahmudjon Nishonov 1954-yilda Namangan viloyati Chortoq shahrida ishchi oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'lim va tarbiyani Chortoq shahridagi 1-o'rta maktabda oldi. U 1976-yilda Namangan davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirib, uni 1981-yilda imtiyozli diplom bilan bitirdi hamda umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchi lavozimida o'z mehnat faoliyatini boshladi.



M.Nishonov talabalarni fan asoslari bilan puxta qurollantirishdan

tashqari o'zining ilmiy va uslubiy maqolalari bilan matbuotda faol qatnashib bordi. Ayniqsa, pedagogik bilimlarni jamoatchilikka, ota-onalarga yoyishda institut va viloyatda faollik ko'rsatdi. Bu boradagi samarali mehnati uchun O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1985-yil O'zbekiston Xalq maorifi a'lochisi nishoni bilan taqdirlandi. U 1985-yil O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining aspiranturasiga o'qishga kirdi. Pedagogika fanlari doktori, professor E.T.Choriyev rahbarligida 1991-yilda Toshkent davlat pedagogika institutidagi maxsus kengashda "O'zbekiston qishloq maktablari o'quvchilarining ota-onalariga pedagogik bilim berish tizimi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.



M.Nishonov 1981-yildan kafedrada o'qituvchi, kafedra mudiri (2006-2007-yillarda "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri), dotsent, dekan, universitet o'quv bo'limining boshlig'i, universitet ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari prorektori lavozimlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda pedagogika fakulteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri lavozimida faoliyat olib bormoqda.

M.Nishonov oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish muammolari mavzusida hozirgacha 70 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqola, qo'llanma va dasturlar e'lon qilgan. Pedagogika fanlari doktori, professor A.K.Munavvarov tahriri ostida "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan "Pedagogika" darsligining mualliflaridan biridir.

## **SOBIROV ABDISHUKUR SHAKIROVICH**

**(1955-2011)**



Sobirov Abdishukur Shokirovich pedagogika fanlari nomzodi, 2007-yil 1-apreldan Namangan davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan. 2011-yil fevral oyida vafot etgan.

Sobirov Abdishukur Shokirovich 1955-yil 21-iyunda Norin tumanida To'da qishlog'ida tug'ilgan. 1971-yilda qishloqdagi Yo'ldosh Oxunboboyev nomli 23-o'rta maktabni tugatgan. 1975-1982- yillarda Namangan davlat pedagogika institutida o'qigan. 1976-1978-yillarda harbiy xizmatda bo'lgan.

A.Sobirov pedagogik faoliyatini tumandagi 23-o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchiligida boshladi. Olim bo'lish uning birdan bir orzusi edi. Bu yo'lda tinmay izlandi. Gazeta va

jurnallarda o'zining ilmiy-metodik maqolalari bilan faol qatnashdi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni 1986-yilda Toshkent davlat universitetining aspiranturasiga yetakladi. Ustozlari filologiya fanlari doktori, professor N.Saidov va O.Madayevlar rahbarligida "Adabiyot mashg'ulotlarida mahalliy-adabiy va madaniy materiallardan foydalanish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi ustida tadqiqotlar olib bordi. Namangan viloyatining ko'pgina maktablarida o'z ishi yuzasidan tajribalar o'tkazdi. Ustozi Namangan davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi T.G'oziboyev bilan birgalikda Namangan viloyatining ko'pgina tuman, qishloqlarida bo'lib, mahalliy xalq og'zaki ijodi durdonalarini yozib oldi. "5-sinfda "Uch og'a-ini" ertagini o'rganish", "Namangan xalq og'zaki ijodi namunalari", "Adabiy o'lkashunoslik materiallaridan adabiyot darslarida foydalanish", "Namagan yor-yori", "Adabiyot darslarida ona-yurt haqidagi asarlarni o'rganish" kabi bir qancha risolalar muallifi bo'ldi. "Namangan ertaklari" (1998) nomli yirik kitobi respublika "Sharq" nashriyatida nashr etilib, respublikamizning barcha viloyatlariga tarqatildi. 1996-yil 18-sentabrda "Adabiyot darslarida mashalliy adabiy-madaniy materiallardan foydalanish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.



A.Sobirov 1990-2001-yillarda Namangan pedagogika kollejida o'qituvchi, bo'lim mudiri lavozimlarida faoliyat olib bordi. 2001-yildan "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat olib bordi.

Sobirov Abdishukur Shokirovichning pedagogik mehnatlari munosib taqdirlangan. 1995-yilda "O'zbekiston Respublikasi Xalq maorif a'lochisi", 1998-yilda Viloyat Hokimligi "Faxriy yorlig'i" bilan mukofotlangan.

## JAMALOVA MA'MURA SOLOHIDDINOVNA



Jamalova Ma'mura Solohiddinovna filologiya fanlari nomzodi, 2002-yilning 25-avgustidan Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimida ishlagan. 2011-yildan nafaqada.

Jamolova Ma'mura Solohiddinovna 1957-yil 7-aprelda Namanga shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, 1972-yilda Namangan maktabgacha tarbiya pedagogika bilim yurtida o'qidi va uni imtiyozli diplom bilan yakunladi. 1981-yilda Namangan davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakultetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limini tamomladi.

1989-1992-yillarda Namangan davlat universiteti boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchi, 1993-yildan o'zbek filologiyasi fakultetining o'zbek adabiyoti kafedrasida, 2002-yildan boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bordi.

M.Jamolova o'tmish adabiyotimiz tarixining tadqiqotchisidir. U 1984-1992-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot institutining "Adabiyot tarixi" bo'limida Beruniy mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori Sadirxon Erkinov

rahbarligida “XIV-XV asr o‘zbek nomalarining janr xususiyatlari” mavzusida tadqiqot ishlari olib bordi. 1992-yilda “XIV-XV asr o‘zbek adabiyotida noma janri” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldi.

M.Jamolova 40 dan ortiq ilmiy metodik maqolalar muallifidir. 1992-yilda uning “O‘zbek adabiyotida noma janri” risolasi “Fan” nashriyoti tomonidan nashr etilgan.

## **ABDURAHMONOV MIRZAMAHMUD**

**(1950-2010)**



Abdurahmonov Mirzamahmud 1950-yil 26-aprelda Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani Qo‘g‘ay qishlog‘ida tug‘ilgan

1977- yildan 2010-yilgacha Namangan davlat pedagogika instituti (hozirgi Namangan davlat universiteti) geografiya-biologiya fakultetida geografiya kafedrasida katta o‘qituvchi, pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida dotsent, Namangan viloyati hokimligi va Namangan davlat universiteti qoshidagi “Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash o‘quv markazi”

direktori lavozimlarida ishlagan (2010-yil 6-martda xastalik tufayli vafot etgan).

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. 2001-yil “Tabiiy geografiya darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 100 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalarini nashr ettirgan, 5 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratgan. Geografiya fanini o‘rta umumta‘lim maktablarida o‘qitish usulubiyotiga oid ishlari respublika, Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston geografiya uslubchilari tomonidan e‘tirof etilgan. Mazkur sohada ko‘plab shogirdlarni ham tarbiyalagan. Yuzlab shogirdlari maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida ishlamoqda.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi tizimi umumiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

- umumiy fanlar bo‘yicha malaka oshirish va qay‘ tayyorlash o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar;
- 2002-2003-yillarda O‘zbekiston-Germaniya texnikavi hamkorlik loyihalari doirasida “Zamonaviy kasbiy pedagogika’ xalqaro o‘quv dasturlarini respublikada o‘qitish va mavjud o‘quv rejalarga horijiy tajribalarni kiritish bo‘yicha ishlar;
- Respublika doirasida malaka oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy konferentsiya tashkil etgan;
- Birinchilardan bo‘lib o‘quv markazining internetdagi veb-sahifasi [www.namdu-malaka.narod.ru](http://www.namdu-malaka.narod.ru). ni yaratishda tashabbuskorlik qilgan.

Viloyat hokimligi nomenklaturasiga rahbar lavozimlariga zahiraga olingan kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlari:

- Zahira kadrlar tayyorlash, nashr ettirish va qo‘llash;



“Rahbar mas’uliyati”, “Rahbar etikasi”, “Rahbar burchi”, “Rahbarning amaliy ko’nikmalari” kabi uslubiy qo’llanmalar muallifi. Mashhur psixolog-amaliyotchi A.Pizning “Gavda harakatlari tili” nomli kitobini ilk bor o’zbek tiliga tarjimasiga tashabbuskor bo’lib, mas’ul muharrir sifatida yuzlab nusxada nashr ettirgan. Mazkur qo’llanma pedagoglar, psixologlar hamda xavfsizlik xizmati xodimlari ish faoliyatida doim foydalanadigan qo’llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

M.Abdurahmonov tabiatan haqgo’y, samimiy, talabchan, yaxshi suhbatdosh, shuningdek, mehnatsevar, bir ishga jon dahdi bilan kirishadigan, imkon topdi deguncha, insonlarga yaxshilik qiladigan inson edi.

### ABDULHAKIM ZIYODULLAYEV



Abdulhakim Ziyodullayev 1949-yil 5-avgustda Samarqand viloyatining G’allaorol tumaniga qarashli Kuytosh qo’rg’onida tug’ilgan.

A.Ziyodullayev 1956-1964-yillarda o’rta maktabda, 1964-1968-yillarda texnikumda, 1968-1973-yillarda Samarqand davlat institutining

rus tili va adabiyoti fakultetida o'qidi. 1973-1979-yillarda o'rtta maktabda o'qituvchi, maktab direktori, Jizzax viloyat o'quv-uslubiy markazida katta uslubchi vazifalarida ishladi. Pedagogika va metodika fanlariga qiziqish uni 1980-yilda Sirdaryo davlat pedagogika institutida mehnat qilishga chorladi. U institutda texnika vositalarini o'quv jarayonida qo'llash bo'yicha ish olib bordi. Institut olimlari bilan birgalikda tutash televideniyeini o'quv jarayonida qo'llashni respublikada birinchilar qatori amalga oshirdi va bu jarayonda faol qatnashdi.

1981-1984-yillarda Moskva shahridagi mazmun va uslubiyot laboratoriyasida aspiranturada o'qidi, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1985-1986-yillarda Sirdaryo davlat pedagogika institutida rus tili va adabiyotini o'qitish uslubiyoti kafedrasining mudiri, 1986-1996-yillarda Namangan politexnika institutida katta o'qituvchi, dotsent vazifalarida ishladi. 1994-yildan 2010-yilga qadar Namangan davlat universitetining "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bordi.

### **SAODATXON MUSAYEVA**



Saodatxon Musayeva 1949-yil 13-yanvarda RSFSRning Kemerovo viloyati, Kiselevsk shahrida ishchi oilasida tug'ilgan. 1950-yildan ota

yurti O'zbekistonda yashay boshladi. 1966-yili Namangan davlat pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi hamda 1970-yilda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi mutaxassisligini oldi. 1983-yildan Namangan davlat pedagogika institutida "Mehnat ta'limi metodikasi" fanidan dars bera boshladi hamda boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'limida sirdan o'qib, 1988-yili ikkinchi mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumot diplomini oldi. Shu bilan birga, mehnat ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishda bo'ldi.

1995-yilda "Mehnat ta'limi darslarida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tejamkorlik hislatlarini singdirish" mavzusida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi ilmiy kengashda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

30 dan ortiq ilmiy maqolalari jurnallarda chop etilgan. S.Musayeva ilmiy ishining nazariy va amaliy qiymati shundan iboratki, o'quvchilarni kichik maktab yoshidan boshlab vaqtni tejashga, turmushda kerak bo'ladigan turli materiallarni isrof qilmaslikka o'rgatish, asbob-uskunalardan unumli foydalana olish malakasi hamda ko'nikmalarini hosil qilish, tejamkorlik, tadbirkorlik, ijodkorlik, serharakatlilik, topqirlik, mehnatsevarlik xislatlarini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa xalqimiz hayotiga va davlat ahamiyatiga molik ishdir.

S.Musayeva universitetning pedagogika fakulteti, "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent vazifasida uzoq yillar samarali mehnat qildi. Iste'dodli olim S.Musayeva hozirgi kunda mehnat nafaqasida bo'lishiga qaramay Namangan shahar va viloyat yoshlarini kasb-hunar hamda tadbirkorlikka yo'llash borasida ibratli ishlarni amalga oshirmoqda.



Namangan viloyatining Uychi tumani Yorkatay qishlog'i Mirzaravot mahallasida hamma hurmat qiladigan ziyoli oila bor. Bu oiladagi ota-ona ham, farzandlar ham ilm-fanga intilishlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Hamidova Muhayyoxon Obidovna ham shu oilada 1972-yil 1-dekabr kuni tug'ilib, unib o'sdi, voyaga yetdi. 1989-yili shu qishloqdagi 11-o'rta maktabni muvaffaqiyatli tamomladi. Shu yiliyoq Namangan davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. U o'qish yillari o'zining mehnatsevarligi, jamoatchiligi, a'lochiligi bilan jamo diqqat-e'tiborini tortdi. "Mening ilm-fanga bo'lgan muhabbatim universitetdan boshlanadi," -deydi u bu haqda bo'lib o'tgan suhbatlarning birida. Kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishimda fakultetdagi ilmiy muhit, ustozlarim G'oziboy Tojiboyev, Salohiddin Jamolov, Odiljon Nosirov, Tursunboy Nu'monov, Mahmudjon Ma'murov, O'g'ilxon Azimova, Nuriddin Boboxo'jayev, Muniraxon Muhammadiyeva, Shahodatxon Egamberdiyeva, Abdulhamid Qurbonov, Sobirova Mahbubaxonlarning faoliyatlari, saboqlari, maslahatlari asqotdi".

M.Hamidova 1994-yil universitetni tamomlab, O'zbek adabiyoti kafedrasiga o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilindi. U ushbu kafedrada o'qituvchi lavozimida ishlash bilan birga, adabiyot fanini chuqur o'rgana boshladi, o'z ustida tinmay ishladi, ustozlari ko'magida talabalarga dars berish tajribasini to'la o'rgandi.

Ilmga bo'lgan intilish uni Toshkentga yetakladi. U dastlab 1996-yilning 2-sentabridan o'zbek adabiyoti kafedrasining stajyor - tadqiqotchi o'qituvchisi sifatida ilmiy faoliyatini boshladi. 1996-yilning 12-dekabridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining aspiranturasiga o'qishga qabul qilindi. M.Hamidova aspiranturada o'qish jarayonida hozirgi o'zbek adabiyoti, nemis tili, mustaqillik mafkurasi va demokratik jamiyat qurilishi fanlaridan nomzodlik imtihonlarini a'lo baholarga topshirdi

M.Hamidova 1999-yil 16-dekabrida o'qishni tugatib, mazkur institutning adabiy aloqalar va tarjima nazariyasi bo'limiga kichik ilmiy xodim lavozimiga ishga qabul qilindi. U o'qish davomida va kichik ilmiy xodim sifatida ishlash jarayonida jamoat ishlarida faol ishtirok etdi. "Yosh olimlar milliy jamiyati"ning mas'ul kotibi hamda "O'zbek adabiyoti" sektorining raisi, "Kamolot" YOIH tashkiloti qo'mitasi raisining o'rinbosari kabi vazilarda ham faoliyat ko'rsatdi.

Nihoyat M.Hamidova orziqib kutgan kun keldi. 2001-yilning 19-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida tashkil etilgan Ilmiy kengashda "Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida)" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ma'lumki, so'z san'atida milliy qahramon tahliliga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar bor. Biroq bu muammo mazkur dissertatsiyada istiqloq davrining yangi mezon va talablari asosida monografik planda

yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodi misolida ilk bor talqin etildi. Ilmiy ish mavzuning dolzarbligi va nazariy xulosalarning yangiligi, istiqloq davrining milliy qahramon timsolidagi badiiy talqinini o'rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy yangiligi milliy qahramonlar obrazi yaratilishidagi badiiy-tasiriy vositalar sistemasining individual va an'anaviy fazilatlarini ochishda, milliy qahramon tiplarini yaratishdagi o'ziga xoslikni ko'rsatishda, qahramon ichki dunyosi va tashqi portretini yaratishdagi mahoratini aniqlashda ko'zga tashlanadi.

Shukur Xolmirzayev sho'rolar davrida milliy ozodlik uchun kurashgan yurtimiz farzandlari qiyofasini, asosan, ularning tafakkuri, ruhiyati, ichki dunyosida kechgan jarayonlarni badiiy aks ettirish orqali erishadi. Dissertatsiyada ana shu "ichkari"dagi kurashlar, ziddiyatlarning badiiy tasviridagi yozuvchi uslubini ochishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, Shukur Xolmirzayev asarlariga faqat badiiy mahorat mahsuli sifatidagina emas, vatanparvar insonning jasorati natijalari sifatida ham yondashilgan. Olima o'z oldiga qo'ygan maqsadga Shukur Xolmirzayevning "Qil ko'prik" romani, "Qora kamar" dramasi, "Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari", "Esiz, Eshnimyoz" qissalari va bir qancha hikoyalari, jumladan, "Ko'k dengiz", "Tabassum" kabi hikoyalari bir-biriga bog'liq holda tahlil etish orqali erishgan.

Dissertatsiyaning nazariy va amaliy ahamiyati katta.



M.Hamidova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2001-yil 27-dekabrdagi 83/1-son bayonnomasi bilan filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

M.Hamidova 2001-yil nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgandan so'ng yana o'z qadrdon oliygohi, ya'ni Namangan davlat universitetining "Boshlang'ich ta'lim" metodikasi kafedrasiga o'qituvchi lavozimiga ishga qaytdi. U dastlab ushbu kafedrada o'qituvchi lavozimida ish boshlagan bo'lsa, keyinchalik katta o'qituvchi, dotsent vazifasini bajaruvchi, dotsent lavozimlarida faoliyat olib bordi. M.Hamidova ushbu yillar davomida kafedra va fakultetning zabardast professor-o'qituvchilari pedagogika fanlari nomzodi, professor M.Yusupov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Alixon Xalilbekov, pedagogika fanlari nomzodlari, dotsentlar Narzulloxon Uluxujayev, Mahmudjon Nishonov, Abdushukur Sobirov, psixologiya fanlari nomzodi Abdulhamid Rahmonovlarning tajribalarini o'rgandi. Ulardan olgan tajribalari asosida talabalarga "Ona tili va adabiyoti", "Ona tili va bolalar adabiyoti", "O'qituvchi nutqi madaniyati" kabi fanlardan dars

berish, ijodkor talabalar uchun tashkil etilgan “Ilhom chashmalari” to’garagi rahbari sifatida faoliyat olib borish bilan birga, ilmiy izlanishlarini ham davom ettirdi. Ushbu ishlari uchun O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2006-yil 23-fevraldagi 122/1-bayonnomasi bilan dotsent ilmiy unvonini oldi.

M.Hamidova shu kunga qadar “Hozirgi o’zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida)” mavzusidagi monografiyasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent N.Uluxujayev bilan hamkorlikda “Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va ularni himoya qilish”, “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va o’tkazish” nomli uslubiy ko’rsatmalarni, “Iqtidorli talabalar faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar”, “Quddus Muhammadiy hayoti va ijodini o’rganish”, “Aleksandr Sergeyeovich Pushkin hayoti va ijodi” nomli uslubiy ko’rsatmalar, “Bolalar adabiyoti fanini o’qitishda badiiy obraz tahliliga o’rgatish”, “Ona tilidan mashqlar to’plami”, “Ona tili va bolalar adabiyoti” nomli uslubiy qo’llanmalar, filologiya fanlari nomzodi Obidjon Karimov bilan hamkorlikda filologiya fanlari doktori, akademik Baxtiyor Nazarov ijodi yuzasidan “Munaqqid saodati” nomli risolasini va shuningdek, 70 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalarini matbuotda chop ettirdi.

Hozirgi vaqtda M.O.Hamidova “Shukur Xolmirzayev nasrining badiiy-uslubiy o’ziga xosligi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida tadqiqot olib bormoqda.

M.O.Hamidova o’zining mutaxassisligi bo’yicha yetuk mutaxassis, notiq, salohiyatli pedagog va mehribon o’qituvchi sifatida fakultet, universitet talabalari orasida alohida hurmatga ega.





M.Hamidova boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 301-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, fakultetda "Ilhom chashmalari" nomli adabiy-badiiy to'garakka ham rahbarlik qilib kelmoqda. To'garak a'zolarining, jumladan, To'xtasinova Adibaning "Ikki yo'l", "Baxt sururi", Ikromov Azizbekning "Onamdayin bo'lolmas hech kim", Abdulxayeva Maftunaning "Qidir meni orzularingdan..." kabi she'riy to'plamlari matbuotda chop ettirildi.

**AZIZ BEK**



**ONAMDAYIN BO‘LOLMAS  
HECH KIM**

**АДИБА ХУШРҶҲ**

**ИККИ ЙЎЛ**






*Мафтуна Абдулхаева*

*Қидир-меңи  
орзуларингдан...*

Адиба ХУШРЎЙ

# БАХТ СУРУРИ





Shuningdek u rahbarlik qilayotgan iqtidorli talabalardan boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 301-guruh talabasi Umarova Ziyoda Ahat qizi Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ta'sis etilgan "Kamolot stipendiyasining 2015-yildagi sovrindori bo'ldi.



Shu bilan birga, Namangan shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 31-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Mahorat maktabi" bo'yicha olib boriladigan ishlarda ham faoliyat olib bormoqda.





M.Hamidova talabalar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha "Ilhom chashmalari" to'garagi a'zolari hamda pedagogika fakultet iqtidorli talabalari bilan birga "Ustozlar-el e'zozida!", "Til-millat ko'zgusi", "Navoiy nazmida komil inson", "Zahiriddin Muhammad Bobur –shoir sarkarda va buyuk davlat arbobi" kabi bir qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tayyorlab o'tkazib kelmoqda.

M.Hamidova Namangan davlat universiteti Boshlang'ich Xotin-qizlar kengashining ma'naviy- axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha "Ayollar o'rtasid diniy muhitni sog'lomlashtirish va diniy ekstremizmning oldini olish hamda kiyinish madaniyati", "Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ular o'rtasida uchraydigan turli xil ekstragenetal kasalliklarning oldini olish" kabi tadbirlarni tayyorlab o'tkazmoqda. Shuningdek, viloyat "Yoshlar markazi"da bo'lib o'tgan "Qo'li guldin-o'zbek ayoli" kabi ko'rik tanlovlarida ham ishtirok etib kelmoqda.

## Namangan viloyat “Yoshlar” markazida “Qo’li guldor o’zbek ayoli” mavzusida o’tkazilgan tadbir



2016-yil “Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi” tanlovining “Innovatsiya va axborot texnologiyalarini qo’llaydigan eng yaxshi pedagog” nominatsiyasi bo’yicha universitet bosqichida 1-o’rinni oldi.

M.O.Hamidova talabalar o’rtasida kasbga yo’naltirish ishlarini olib borib, mustaqil O’zbekistonimiz uchun yetuk kadrlarni yetishtirib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissasini qo’shib kelmoqda.





Shaamirova Yulduzxon Kabildjanovna 1965-yil 18-mayda Toshkent shahar Kuybushev tumanida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1988-yil Namangan davlat pedagogika institutining filologiya fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'limini bitirib, boshlang'ich sinf o'qituvchisi lavozimida ishlay boshladi. Ishdan ajralmagan holda 1999-2003-yillarda Respublika "Oila ilmiy-amaliy" Markazining aspirantura bo'limiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatli yakunladi. O'qish davrida "Noto'liq oilalarda o'smirlarni milliy-ma'naviy tarbiyalash" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ustida ilmiy ish olib bordi.

2006-yil 28-sentabrda O'zbekiston Respublikasi T.N.Qori Niyoziy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti qoshidagi 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Respublika miqyosida OAK tasarrufidagi 18 ta ilmiy maqola va 16 ta anjuman to'plamlarida tezislar bilan qatnashdi, 2 ta risola chop ettirdi.

Bundan tashqari asosiy ish faoliyatidan ajralmagan holda 2006-yildan beri tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanib kelmoqda.

Respublika “Oydin Hayot” sog’lomlashtirish targ’ibot-tashviqot markazi nodavlat va notijorat tashkiloti bo’lib, Namangan viloyat bo’limi 2009-yil aprel muddati bilan Namangan viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan ro’yxatga olindi. Ushbu markaz bo’limiga Respublika “Oydin Hayot” sog’lomlashtirish targ’ibot-tashviqot markazi rahbari pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova buyrug’i bilan rahbar etib tayinlandi. 2011-yil Oliy Majlis Parlament komissiyasining granti g’olibi bo’ldi. Markaz o’smirlarni ma’naviy dunyoqarashini, oilalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli rejalar tuzib, bir qancha ijobiy ishlar qilishga muvaffaq bo’ldi.

34 yillik ish faoliyati davrida Namangan shahar XTB ga qarashli umumta’lim 7, 35, 49, 41-maktablarida boshlang’ich sinf o’qituvchisi bo’lib, 1991–2002-yillar NVO’MOQT instituti boshlang’ich ta’lim bo’limi metodisti bo’lib, 2002-yilda Namangan viloyat Xalq ta’lim boshqarmasining monitoring bo’limi yetakchi mutaxassisi bo’lib, 2002-yildan hozirgi davrgacha Namangan davlat universitetining pedagogika fakulteti boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasida o’qituvchi, katta o’qituvchi lavozimlarida ishlab kelmoqda. 2015-yil noyabr oyi e’lon qilingan tanlovda qatnashib kafedraning katta o’qituvchisi etib saylandi. 2011-2012-yillarda boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasida mudiri lavozimida ishladi.

Hozirgi kungacha 36 ta ilmiy maqolalar, tezislar yozgan. 2014-o’quv yili “Ona tili o’qitish metodikasi” fanidan 58 bosma taboqli dars ishlanmalar to’plami nashr etildi. Kafedra faoliyatini respublika “Boshlang’ich ta’lim” jurnalida ommalashtirib bormoqda.

2014-yil “Noto’liq oilalarda o’smirlarni tarbiyalash” nomli metodik qo’llanma “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv Markazi” tomonidan vazirlikning grifti bilan chop etildi.

## ABDURAHMONOV BAHROM SOBITOVICH



Abdurahmonov Bahrom Sobitovich, 1963-yili 29-iyunda Namangan shahrida ishchi oilasida tug'ildi. 1970-yili Namangan shahridagi 27-o'rta maktabning 1-sinfiga o'qishga kirdi. 1980-yili o'rta maktabni tamomlab, Namangan shahridagi 15-sonli g'isht zavodida ishchi lavozimida faoliyat olib bordi. 1981-yili Andijon davlat tillar pedagogika institutining tayyorlov kursiga o'qishga kirdi. 1982-yil Andijon davlat tillar pedagogika institutining tayyorlov kursini muvaffaqiyatli tamomlab, mazkur institutning filologiya fakulteti o'zbek va rus tillari yo'nalishi, 1-kursiga o'qishga qabul qilindi.



1989-yili institutni tamomlab, mazkur institutning o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlay boshladi. 1990-1997-yillari Namangan davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishladi. 1997-2008-yillari Namangan shahar pedagogika kollejida o'qituvchi, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining mudiri, kollej direktorining o'quv-uslubiy ishlar bo'yicha o'rinbosari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishladi. 2008-yildan 2012-yilgacha Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishladi. 2012-yildan 2013-yilga qadar Namangan tuman Tapaqo'rg'on pedagogika va servis kollejida rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi vazifasida, 2013- yildan boshlab "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.



B.Abdurahmonov boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 403-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, "Russkaya rech" to'garagi hamda Norin sanoat va servis kasb-hunar kollejida filial kafedra mudiri sifatida faoliyat ham olib bormoqda.

## SHERALIYEV HAKIMJON



Sheraliyev Hakimjon 1956-yili 31-mayda Farg'ona viloyati Buvayda tumani Tog'lik qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. 1963-yili Buvayda tumanidagi 39-o'rta maktabning 1-sinfiga o'qishga kirib, 1973-yili o'rta maktabni a'lo baholarga tamomladi. So'ng Farg'ona kooperativ texnikumining sirtqi bo'limiga o'qishga kiridi. 1978-yili ushbu texnikumni muvaffaqiyatli tamomlagan.

U 1973-1980 yillarda Buvayda tumani "Matlubot jamiyati"da muiaxassis bo'lib ishladi. 1974-1976-yillari harbiy xizmatda bo'lgan.

1980-1984-yillarda Toshkent davlat madaniyat instituti talabasi, 1984-1987- yillarda Toshkent davlat madaniyat institutining o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 1987-2007-yillarda Namangan pedagogika bilim yurtida kutubxona mudiri hamda ona tili va adabiyoti o'qituvchisi vazifalarida ishlagan. 2007-2013-yillarda Namangan tumani Tapaqo'rg'on pedagogika va servis kasb-hunar kollejida o'qituvchi lavozimlarida ishlagan.



2013-yildan hozirga qadar Namangan davlat universitetining boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishladi va 2016-yilning sentabr oyidan nafaqada.

Sheraliev Hakimjon 1997-yili O'zbekiston Respublikasi xalq maorifi a'lochisi ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

### **ABDULLAYEV TO'LQINALI USMONOVICH**



Abdullayev To'lqinali Usmonovich 1978-yil 13-noyabrda Namangan viloyati Chust tumani Baymoq qishlog'ida ziyoli oilasida

tug'ilgan.

U 1995-1999-yillarda Namangan davlat universitetining Matematika fakultetini tamomlagan. 1999-2001-yillarda Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universiteti magistraturasining matematika mutaxassisligini tamomlagan. 2001-2004-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomli Matematika institutida aspirant bo'lgan.

2005-yilda Namangan davlat universiteti Matematika fakulteti Algebra va matematika o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ish boshlagan. 2006-yil 7-dekabrda O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashda 01.01.05-Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika ixtisosligi bo'yicha "Bog'liqli Bernulli tasodifiy miqdorlar uchun markaziy limit teorema" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

T.U.Abdullayev 2008-2009-yillarda Namangan davlat universitetining Matematika fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, 2009-2010-yillarda Matematika fakulteti dekani, 2012 yillarda Fizika-matematika fakulteti dekani, 2014-2013yildan "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini mudiri, katta o'qituvchisi lavozimlarida, universitet o'quv bo'limi boshlig'i, 2016-yildan "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini mudiri lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

T.U.Abdullayev 20 ga yaqin ilmiy va o'quv-uslubiy ishlar muallifi.

2013-yilning 15-aprelida Respublika miqyosida "Yosh matematiklarning yangi teoremlari - 2013" nomli ilmiy-amaliy konferensiyani o'zining rahbarligida o'tkazdi. Hozirda "Bog'liqli Bernulli tasodifiy miqdorlar uchun markaziy limit teorema" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.



Qurbonov Abdulhamid Abdiqayumovich 1957-yil 29-martda tug'ilgan.

Qurbonov Abdulhamid Abdiqayumovich 1975-1979-yillarda Hamza nomli Namangan davlat pedogogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olib, uni imtiyozli diplom bilan bitirgan.

U 1979-1980-yillarda Toshkent davlat Madaniyat institutining Namangan kompleks fakultetida o'qituvchi, 1981-yildan boshlab esa Namangan davlat universiteti o'zbek adabiyoti kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi va filologiya fakulteti dekani o'rinbosari, o'quv-uslubiy boshqarmaning uslubchisi lavozimlarida ishladi. 2013-yilning 1-martidan boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimida ishladi.

A.Qurbonov o'zining mehnatsevarligi, kamtarligi, tashkilotchiligi, izlanuvchanligi, bilimdonligi bilan universitet o'qituvchi va talabalari o'rtasida munosib o'rin egallagan. U universitet talabalariga "O'zbek mumtoz adabiyoti", "Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari", "Aruz vazni" hamda "O'zbek tili" fanlaridan dars beradi. A.Qurbonov o'z



fanlarining bilimdonidir. U talabalarga sermazmun saboqlar berish bilan birga, bir qator o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratdi.

A.Qurbanov o'z kasbi va lavozimi, shuningdek, jamoatchilik faoliyatiga tegishli hujjatlarni o'z vaqtida va sifatli tayyorlashi bilan ajralib turadi. Uning "O'zbek mumtoz adabiyoti", "Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari", "Aruz vazni", "O'zbek tili" fanlaridan tayyorlagan ishchi dasturlari hamda o'quv-uslubiy majmualari barcha talablarga javob beradi. Uning ish hujjatlariga mas'uliyat bilan yondashishi o'quv-uslubiy boshqarmada uslubchi bo'lib ishlagan paytlarida ham yorqin ko'zga tashlandi.

A.Qurbonov talabalarga saboq berish bilan birga, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish ishiga ham jiddiy e'tiborni qaratib kelmoqda. A.Qurbonovning navoiyshunoslik yo'nalishidagi yigirmadan ortiq maqolalari respublika, chet el ilmiy jurnal va to'plamlarida chop etilgan.

Hozirgi kunda A.Qurbonov Nizomiy nomidagi TDPUda katta ilmiy xodim sifatida "Xamsa" badiiyatida sarlavhalarining tutgan o'rni" nomli doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib bormoqda.

## QAMBAROV NODIRJON SATTAROVICH



Qambarov Nodirjon Sattarovich 1972-yil 10-oktabrda tug'ilgan. 2000-yildan Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlaydi.

Qambarov Nodirjon Sattarovich 1989-1994-yillarda Namangan davlat universitetining tasviriy san'at, chizmachilik yo'nalishida tahsil olgan. U 1994-1999-yillarda Namangan viloyat aniq va tabiiy fanlar litseyida o'qituvchi, 2000-yildan boshlab esa Namangan davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

N.Qambarov o'zining mehnatsevarligi, kamtarligi, tashkilotchiligi, izlanuvchanligi, bilimdonligi bilan universitet o'qituvchi va talabalari o'rtasida munosib o'rin egallagan. U universitet talabalariga "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" fanidan dars beradi. N.Qambarov o'z fanining chuqur bilimdonidir.

N.Qambarov o'z kasbi va lavozimi, shuningdek, jamoatchilik faoliyatiga tegishli hujjatlarni o'z vaqtida, sifatli tayyorlashi bilan ajralib turadi. Uning "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" fanidan tayyorlagan

ishchi-o'quv dasturi hamda o'quv-uslubiy majmuasi barcha talablarga javob beradi. Ushbu "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" fanidan tayyorlagan o'quv-uslubiy majmuani Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent X.Sanaqulov bilan hamkorlikda tayyorlashining o'zi ham uning ishga jiddiy e'tibor bilan yondashishidan dalolat beradi.

N.Qambarov "Aykido" -sharq yakka kurashi bo'yicha to'garagida faoliyat olib boradi. U "Aykido" bo'yicha sport ustasi. Shu bilan birga, Namangan viloyat "Aykido" fideratsiyasi rahbari hamdir. N.Qambarov "Aykido" bo'yicha hududiy, respublika va xalqaro seminarlar ishtirokchisi.

N.Qambarov 2015-yil 5-noyabr kuni Namangan viloyatiga tashrif buyurgan hamda seminar tashkil etgan yaponiyalik Aykido ustasi, qora belbog' sohibi IV-DAN sohibi janob Seyko Eydzo bilan boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalariga "Jismoniy tarbiya va sport salomatlik garovi" mavzusida davra suhbatini tashkil qilib o'tkazdi.

N.Qambarov davra suhbatini orqali yoshlar tarbiyasida sportning muhim tomonlari, undan unumli foydalanish, bunda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati haqida o'z fikrlarini aytib o'tdi. Shundan so'ng viloyatimizga tashrif buyurgan hamda seminar tashkil etgan yaponiyalik Aykido ustasi, qora belbog' IV-DAN sohibi janob Seyko Eydzo ham jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdi. Yana Aykido sporti va uning ham inson salomatligi uchun juda foydali ekanligi, nafaqat salomatlik, shu bilan birga, ma'naviy kamolotga ham yetaklashini aytib o'tdi. Davra suhbatini jarayonida "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini professor-o'qituvchilari fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent M.Xolmurodov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Hamidova, M.To'raboyeva, M.Rahimova va B.Qo'chqarovlar va

talabalar so'z olib, jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdilar. Yana yaponiyalik Aykido ustasi janob Seyko Eydzoga o'zlarini qiziqtirgan savollarini berdilar. Endi doimo jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari kerakligini ta'kidladilar.





Qo'chqarov Bahodir Abdullajanovich 1973-yil 30-aprelda tug'ilgan. 1980-yili Uychi tumanidagi 20-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi sinfiga o'qishga qabul qilindi va 1990-yili oltin medal bilan tamomladi. 1990-1995-yillari Namangan davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida o'qidi. 1995-2000-yilgacha Uychi tumanidagi Beruniy nomli maktabda o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, 2000-2005-yillari Uychi tumani S.Raximov nomli 20-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi lavozimlarida ishladi. 2003-yili "Yil o'qituvchisi" viloyat ko'rik tanlovida faol o'rinni egallab "Fidoiy o'qituvchi" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Ish faoliyati tuman, viloyat, respublika miqyosida ommalashtirildi, VPQTVMOI tomonidan nashr etilgan "Ilg'or pedagoglar" risolasidan o'rin oldi. "Sinfidan tashqari ishlar (adabiyot)" mavzusidagi uslubiy qo'llanmasi chop etildi. 2005-yildan hozirgi kunga qadar Namangan davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim metodikasi, pedagogika-psixologiya, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Ona tili", "Ona tili va adabiyoti" fanlari

bo'yicha 1 – 4 bosqich talabalariga ma`ruza, amaliy mashg'ulotlarni olib bormoqda. Ish faoliyati jarayonida 30 ga yaqin ilmiy maqolalari viloyat, respublika, xalqaro miqyosidagi ommaviy axborot vositalarida, konferensiya tadbirlarida, gazeta va jurnallarda bosilib chiqdi.



Qo'chqarov Bahodir Abdullajanovichning 2010-yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori, professor B.To'xliyev rahbarligi ostida olib borayotgan "Devonu lug'otit turk"da milliy pedagogik qadriyatlarining ifodalanishi" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi mavzui Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi komissiyasi tomonidan tasdiqlanib, 2011-yil Oliy attestatsiyasi komissiyasi jurnalining "Byuleten" jurnalida e'lon qilingan. Uning shu kunga qadar 50 dan ortiq ilmiy maqolalari viloyat, Respublika va xalqaro miqyosdagi matbuot nashrlarida chop etilgan.

B.Qo'chqarov tashabbuskor, jonkuyar o'qituvchi bo'lgani bois kafedrada ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha mas'ul xodim vazifasini bajarib keladi. U kafedra professor-o'qituvchilari hamda akademik guruhlarda turli xil davra suhbatlari, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirib keladi. U o'zining so'zamolligi, nutqining jozibaliligi bilan

alohida ajralib turadi. Buni uning turli xil tadbirlarni boshqarib borishida ham ko'rish mumkin.



B.Qo'chqarov axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalari bo'yicha o'z malakasini oshirib kelgan.

B.Qo'chqarov – o'z faning bilimdoni, jonkuyari. U turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llaydi. Ochiq ma`ruzalar tashkil etib unda talabalarni qiziqtiruvchi turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab dars mashg'ulotlarni o'tganligi undan ko'p narsani o'rganish mumkin degan xulosaga keladi. Uning o'tkazgan ochiq darslari fakultet miqyosida ommalashtirilgan bo'lib, "ZiyoNET- axborot ta'lim tarmog'i"ga berib boriladi.

U bir qator iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatiga ham rahbarlik qilib keladi, maslahatlarini beradi.

B.Qo'chqarov – talabalar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib boradi, ota-onalar bilan doimo hamkorlikda ish ko'radi.



Abdullayeva Nilufarxon Maxamadjanovna 1977-yil 14-mayda tug'ilgan.

1999-yildan buyon Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlaydi.

Abdullayeva Nilufarxon Maxamadjanovna 2010-yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori M.M.Mirqosimova rahbarligi ostida olib borayotgan "Sinfdan tashqari o'qish darslari jarayonida integratsiyalashgan ta'lim berish usullari" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi mavzui Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi komissiyasi tomonidan tasdiqlanib, 2011-yil Oliy attestatsiyasi komissiyasi jurnalining "Byuleten" jurnalida e'lon qilingan. Uning shu kunga qadar 30 ga yaqin ilmiy maqolalari viloyat, Respublika va xalqaro miqyosdagi matbuot nashrlarida chop etilgan. 2011-yilda "Sinfdan tashqari o'qish darslari jarayonida integratsiyalashgan ta'lim berish usullari" nomli metodik qo'llanmasini nashr ettirgan.

Abdullayeva Nilufarxon Maxamadjanovna tashabbuskor, jonkuyar o'qituvchi bo'lgani bois fakultetda bir necha yillardan buyon xotin-



qizlar kengashining raisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Kafedraning ilmiy ishlari bo'yicha mas'ul xodimi vazifasini bajarib keladi. U kafedra professor-o'qituvchilari hamda akademik guruhlarda turli xil davra suhbatlari, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirib keladi. U o'zining so'zamolligi, nutqining jozibaliligi bilan alohida ajralib turadi. Buni uning turli xil tadbirlarni boshqarib borishida ham ko'rish mumkin.

N.Abdullayeva axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiya bo'yicha o'z malakasini oshirib kelgan.

N.Abdullayeva o'z fanining bilimdoni, jonkuyari. U turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llaydi. Ochiq ma'ruzalar tashkil etib unda talabalarni qiziqtiruvchi turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab dars mashg'ulotlarni o'tganligi undan ko'p narsani o'rganish mumkin degan xulosaga keladi.

## **LUTFETDINOVA RA'NO XUSNIDDINOVNA**



Lutfetdinova Ra'no Xusniddinovna 1973-yilning 6-iyunida Namangan viloyatining Namangan shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. 1980-yilda Namangan viloyatining Namangan shahridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga

o'qishga kirib, 1990-yilda mazkur maktabni tugalladi. 1991-yilda Namangan davlat pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi va pedagogikasi bo'limiga o'qishga kirdi va 1996-yilda mazkur fakultetni sirdan boshlang'ich sinf o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha tamomladi.

Ish faoliyatini 1990-1991-yillardan Namangan davlat Pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida laboranti sifatida boshladi. 1992-1993-yillarda Namangan shahridagi 5-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, 1993-1994-yillarda Namangan shahridagi 55-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, 1994-1995-yillarda Namangan davlat universiteti ilmiy bo'lim nazoratchisi, 1995-1996-yillarda Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida laboranti, 1996-1999-yillarda Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta laboranti, 1999-2000-yillarda Namangan davlat universiteti "Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi uslubchisi bo'lib ishladi. 2000-yildan hozirgi vaqtgacha Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi lavozimida faoliyatini davom ettirib kelmoqda

2011-yil 3-sonli byulletenida Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi - 13.00.06 shifri bilan "Boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar vositasida o'quvchilar nutqini o'stirish" nomli ilmiy-tadqiqot ishi mavzusi e'lon qilindi. 2011-yilda "Boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish" nomli uslubiy qo'llanmasi, Moskva shahrida chop etiladigan "Pedagogicheskie nauki" jurnalida maqolasi nashr etildi. Bundan tashqari OAK e'tirof etgan respublika jurnallarida, respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida maqolalari chop etilgan.

R.Lutfetdinova boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 302-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, "Yosh notiq" to'garagi faoliyatini ham muntazam olib boradi.

R.Lutfetdinova fakultet, universitet va viloyat miqyosida o'tkaziladigan adabiy-ma'naviy tadbirlarning faol ishtirokchisi hisoblanadi.



## INOMIDDINOV A`ZAMJON VALIJONOVICH



Inomiddinov A`zamjon Valijonovich 1981-yil 6-dekabrda tug`ilgan. 2004-yildan Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasida o`qituvchi lavozimida ishlay boshladi. 2014-yildan 2016-yilga qadar mazkur kafedrada kafedra mudiri vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat olib bordi. Hozirgi kunda o`qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Inomiddinov A`zamjon Valijonovich 2004-yil Namangan davlat universitetining iqtisodiy-ijtimoiy geografiya mutaxassisligini tamomlab, Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasida o`qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda. Shuningdek, u o`qituvchilik lavozimi bilan birgalikda, dekan o`rinbosari, kafedra mudiri vazifasini bajaruvchi lavozimlarida ham faoliyat ko`satgan.

Inomiddinov A`zamjon Valijonovich ish boshlagan dastlabki kunidanoq mehnatsevarligi, ishga mas`uliyat bilan yondashishi, tirishqoqligi, universitet, fakultet va kafedra bilan bog`liq topshiriqlarni mas`uliyat bilan yondashib, ularni jamoa bilan birgalikda sidqidildan bajarishi bilan barchaning diqqat-e`tiborini qozona oldi.

U soʻzda va amalda qatʼiyatli, oʻzining mutaxassisligi boʻyicha yetuk mutaxassis, notiq, salohiyatli pedagog va adolatli rahbar, mehribon oʻqituvchi sifatida fakultet, universitet talabarlari hamda ustozlari orasida alohida hurmatga ega. Oʻz ustida tinimsiz ishlaydi.

Inomiddinov Aʼzamjon Valijonovich universitet talabalariga “Tabiatshunoslik oʻqitish metodikasi”, “Tabiatshunoslik asoslari” fanlaridan dars beradi. A.Inomiddinov har bir fandan olib borgan maʼruza va amaliy mashgʻulot darslarini oliy taʼlim oldiga qoʻyilgan barcha talablarga rioya qilgan holda tashkil etib, yangi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanib oʻtkazib kelmoqda. A.Inomiddinov har bir faniga jiddiy munosabat bilan yondashadi.



Har yili professor-oʻqituvchilar va talabalar ilmiy anjumanida faol qatnashib, tayyorlagan maʼruzalari dolzarb mavzularda boʻlib, koʻpchilik eʼtiborini qozonmoqda. Iqtidorli talabalar bilan alohida ish olib borib, ularni turli tanlovlarga tayyorlashda oʻz hissasini qoʻshmoqda. U ish faoliyati davomida 45 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalarini matbuotda chop ettirdi.



## **XO'JAMBERDIYEVA SHAXNOZA KO'PAYSINOVNA**



Xo'jamberdiyeva Shaxnoza Ko'paysinovna 1984-yil 21-mayda Namangan viloyati Chortoq tumani B.G'oziyev ko'chasida tug'ilgan. 1990-yilda Chortoq tumanidagi Alisher Navoiy nomli 1-maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilindi va 2001-yilda Chortoq tumanidagi 1-gimnaziyani tamomladi. 2002-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga

qabul qilindi. O'qish davomida 2-kursda "Hamidjon Homidiy", 3-kursda "Natan Mallayev", 4-kursda "Navoiy" nomidagi Davlat stipendiyalari g'olibi bo'gan. 2006-yilda Namangan davlat universitetining Boshlang'ich ta'lim metodikasi mutaxassisligi bo'yicha magistratura bo'limiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilindi va 2008-yil Namangan davlat universitetining boshlang'ich ta'lim mutaxassisligini tamomlab, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

Xo'jamberdiyeva Shaxnoza Ko'paysinovna o'zining tirishqoqligi, ishga mas'uliyat bilan yondashishi, tinimsiz o'z ustida ish olib borishi bilan ajralib turadi.

Xo'jamberdiyeva Shaxnoza Ko'paysinovna salohiyatli pedagog va mehribon o'qituvchi sifatida fakultet, universitet talabalari hamda ustozlari orasida alohida hurmatga ega. O'z ustida tinimsiz ishlaydi. U universitet talabalariga "Ona tili", "Boshlang'ich sinfda integratsiyalashgan ta'lim", "Ona tili o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanlaridan dars beradi. Sh.Xo'jamberdiyeva har bir fandan olib borgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida oliy ta'lim oldiga qo'yilgan barcha talablarga rioya qilgan holda tashkil etib, bir-birini takrorlamagan holda qiziqarli tarzda olib bora oladi. Shuningdek, darslarida yangilikni keng qo'llashga e'tiborni qaratib kelmoqda. U hozirgi kunda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari doktori R.Niyozmetova ilmiy rahbarligida "Ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatish usullari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda. U doktorlik dissertatsiyasi mavzusi yuzasidan 30 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalarini matbuotda chop ettirdi.

Sh.Xo'jamberdiyeva boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 304-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, "Yosh notiq" to'garagi faoliyatini ham muntazam olib boradi.

## **QIRG'IZOV NURIDDIN OLIMJANOVICH**



Qirg'izov Nuriddin Olimjanovich 1979-yil 3-dekabrda tug'ilgan.

Qirg'izov Nuriddin Olimjanovich 2007-yil Namangan davlat universitetining boshlang'ich ta'lim mutaxassisligini tamomlab, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda. 2014-yil 2-yanvardan boshlab ARMda "ZiyoNET axborot-ta'lim tarmog'i" bo'limi xodimi bo'lib ishladi. 2015-yil 9-yanvardan boshlab boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Qirg'izov Nuriddin Olimjanovich ish boshlagan dastlabki kunidanoq mehnatsevarligi, ishga jiddiy e'tiborda bo'lishi, tirishqoqligi, universitet, fakultet va kafedra bilan bog'liq topshiriqlarni o'z vaqtida mas'uliyat bilan yondashib, ularni jamoa bilan birgalikda sidqidildan bajarishi bilan barchaning diqqat-e'tiborini qozona oldi.



Qirg'izov Nuriddin Olimjanovich salohiyatli pedagog va mehribon o'qituvchi sifatida fakultet, universitet talabalari hamda ustozlari orasida alohida hurmatga ega. O'z ustida tinimsiz ishlaydi.



U universitet talabalariga “Odobnoma darslarini o'qitish metodikasi”, “Ona tili o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, “Ona tili o'qitish metodikasi” fanlaridan dars beradi. N.Qirg'izov har bir fandan olib borgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida oliy ta'lim oldiga qo'yilgan barcha talablarga rioya qilgan holda tashkil etib, bir-birini takrorlamagan holda qiziqarli tarzda olib bora oladi. Shuningdek, darslarida yangilikni keng qo'llashga e'tiborni qaratib kelmoqda. Qirg'izov Nuriddin boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 404-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, iqtidorli talabalar bilan ham alohida ish olib boradi.

U 2010-2013-o'quv yili davomida “Ertak asosida insho yozish orqali o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish”, “Ona tili” darslarida interfaol usullardan foydalanish” kabi 30 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalarini matbuotda chop ettirdi.

Qirg'izov Nuriddin Olimjanovich talabalarning bo'sh vaqtini unumli va mazmunli o'tkazish uchun darsdan tashqari vaqtlarda fakultet hamda talabalar uyida "Navoiy va bugungi kun yoshlar hayoti", "Bugungi kun talabalar nigohida" kabi bir qator tadbirlarni tashkil etib olib bormoqda. Shuningdek, u obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida ham muntazam ishtirok etib kelmoqda.

### **RAHIMOVA MEHRIBON ABDUXOLISOVNA**



Rahimova Mehribon Abduxolisovna 1987-yil 27-iyunda Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani Qurama qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. 2008-yil Namangan davlat universitetining pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishini bitirib, 2010-yil boshlang'ich ta'lim mutaxassisligibo'yicha magistraturani tamomlagan. 2011-yil 1-noyabrdan Namangan davlat universiteti pedagogika fakultetining boshlag'ich ta'lim metodikasi kafedrasiga o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilindi. 2012-yil 2013-yillarda Pedagogika fakulteti dekanining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari vazifasida ham faoliyat olib bordi.



Rahimova Mehribon Abduxolisovna universitet, fakultet va kafedra bilan bog'liq topshiriqlarni mas'uliyat bilan yondashib, ularni jamoa bilan birgalikda sidqidildan bajaradi. U tashabbuskor, jonkuyay o'qituvchi bo'lgani bois fakultetdagi ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yib bajarib keladi. Uning rahbarligida kafedralar kesimidagi professor-o'qituvchilari hamda akademik guruhlarda turli xil davra suhbatlari, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirib keladi. U o'zining so'zamolligi, nutqining jozibaliligi bilan alohida ajralib turadi. Buni uning turli xil tadbirlarni boshqarib borishida ham ko'rish mumkin.

U so'zda va amalda qat'iyatli, o'zining mutaxassisligi bo'yicha yetuk mutaxassis, notiq, salohiyatli pedagog va adolatli rahbar, mehribon o'qituvchi sifatida fakultet, universitet talabalari hamda ustozlari orasida alohida hurmatga ega. O'z ustida tinimsiz ishlaydi.

M.Rahimova universitet talabalariga "Ona tili o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", "Boshlang'ich maktab pedagogikasi" kabi fanlardan olib borgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida oliy ta'lim oldiga qo'yilgan barcha talablarga rioya qilgan

holda tashkil etib, yangi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanib o'tkazib kelmoqda. M.Rahimova har bir faniga jiddiy munosabat bilan yondashadi.

M.Rahimova iqtidorli talabalar bilan alohida ish olib borib, ularni turli tanlovlarga tayyorlashda o'z hissasini qo'shmoqda

## **SHERMATOVA MAHFUZA RAXIMJANOVNA**



Shermatova Maxfuza Raximjanovna 1971-yili 7-yanvarda Namangan viloyati Chortoq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ildi. 1978-yili Namangan viloyati Chortoq tuman XTVga qarashli 13-o'rta maktabning 1-sinfiga o'qishga kirdi va 1988-yili o'rta maktabni tamomladi. 1989-yili Namangan viloyati Chortoq tumani tibbiyot bilim yurtiga o'qishga kirib, 1991-yili o'qishni muvaffaqiyatli tamomladi. 1991-yili Yangiqo'rg'on tuman markaziy kasalxonasida hamshira bo'lib ishladi. 2001-yili Namangan shahar XTBga qarashli 6-sonli "Tabassum" nomli Maktabgacha ta'lim muassasasiga ishga kirib, 2006-yilgacha tarbiyachi lavozimida ishladi. 2007-yili Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishining sirtqi bo'limida o'qidi. 2009-yillarda Namangan shahar 8-sonli pedagogika yo'nalishiga

ixtisoslashtirilgan maktab internat litseyida tarbiyachi lavozimida ishladi. 2009-yili Namangan davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim magistratura bo'limiga o'qishga kirib, 2011-yili tamomladi. 2011-2013-yillari Namangan shahar Qurilish ijtimoiy va iqtisodiyot kasb-hunar kollejida o'rindosh o'qituvchi bo'lib ishladi. 2013-yildan Namangan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda. Ish faoliyati davomida Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferentsiyalarda hamda an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlarda maqolalar, tezislarni chop ettirdi.



M. Shermatova boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 103-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, "Mohir qo'llar" to'garagi faoliyatini ham muntazam ravishda olib borish bilan birga, "Boshlang'ich sinflarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi" mavzudagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

## TO'RABOYEVA MUQADDAS YOQUBJANOVNA



To'raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna 1979-yil 30-iyul Namangan viloyati Chortoq shahri Oromgoh MFYga qarashli Salomatlik ko'chasida ziyoli oilasida tug'ilgan. Chortoq shahridagi 11-maktabga 1986-yilda o'qishga qabul qilinib, 1995-yilda 9-sinfni tamomlab Chortoq shahridagi iqtidorli bolalalar maktab litseyning ona tili va adabiyot, tarix va ingliz tili yo'nalishida o'qishni davom ettirdi. Litseyi a'lo baholarga tamomlab, 1999-yilda Nam DUning o'zbek filologiyasi fakultetiga test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalar safiga qabul qilindi. 2004 – yilda Nam DU ning O'zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomladi. 2007-yilda Nam DUning Lingvistika (O'zbek tilshunosligi) magistranti bo'lgan. Magistraturani 2009–yilda muvaffaqiyatli tamomladi. Ushbu kunga qadar Respublika ilmiy–amaliy konferensiyalarda 20 dan oshiq ilmiy maqolalari bor. Shuningdek, Respublika miqyosidagi “Yosh olimlar” ko'rik – tanlovlarida muntazam ravishda ishtirok etib, faxrli o'rinlar sohibasi bo'lgan.

Ish faoliyatini Chortoq tumanidagi 49-umumiy o'ta maktabda boshlagan, so'ng 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida ona tili va adabiyot

fani o'qituvchisi, 2003-yil Chortoq tibbiyot kollejida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi vazifasida, 2008-yildan 2014-yil yanvar oyigacha Namangan shahridagi 13-umumiy o'ta maktabda o'qituvchi, 2014-yil yanvar oyidan Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

M.To'raboyeva bugungi kunda filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ilmiy rahbarligida "O'zbek tilidagi tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanish olib bormoqda.

## MA`QULOV SHUXRAT XOLMATJONOVICH



Ma`qulov Shuxrat Xolmatjonovich 1985-yil 17-martda Namangan viloyati, Chust tumani, Karkidon qishlog'ida ziyoli oilasida tug'ilgan.

Sh.Ma`qulov 1991-yil Chust tumani Karkidon qishlog'idagi 5-maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilindi. 2002-yil Chust tumani Karkidon qishlog'idagi 57-maktabning 11-sinfini a'lo baholarga

tamomladi. 2004-2008-yillarda Namangan davlat universiteti “Matematika” fakultetida shartnoma asosida tahsil olgan. 2008-2011-yillarda Namangan shahar 2-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatida o’qituvchi, 2009-2011- yillarda esa Namangan davlat universiteti “Fizika-matematika” fakulteti “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” mutaxassisligi magistranti, 2011-2014-yillarda Namangan davlat universitetining “Matematika” kafedrasida, 2014-yildan boshlab esa “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasilf o’qituvchi hamda Pedagogika fakulteti o’quv ishlari bo’yicha dekan o’rinbosari lavozimlarida faoliyat olib bormoqda.

### **TOSHXONOV AZIZBEK TURSUNBOYEVICH**



Azizbek Tursunboyevich 1990-yil 6-yanvarda Namangan viloyati Norin tumani Xo’jaobod QFY Polvonko’l MFY da tug’ildi.

1996-yil Norin tumanidagi 26-maktabning 1-sinfiga o’qishga qabul qilindi. 2005-yil ushbu maktabda 9-sinfni tamomlab, Norin tumanidagi Qurilish kasb - hunar kollejiga o’qishga qabul qilindi. 2008-yil kollejni tamomlab Namangan davlat universitetiga grant asosida o’qishga qabul qilindi. 2012-yil universitetni tamomlab, “Ehtimollar nazariyasi va



matematik statistika” mutaxassisligiga shartnoma asosida o’qishga qabul qilindi. 2014-yil magistraturani tamomlab, 2-sentabrdan boshlab Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasida o’qituvchi lavozimida faoliyat ko’rsatib kelmoqda.

### **HAMDAMOV G’IYOSBEK ABDUVALIYEVICH**



Hamdamov G’iyosbek Abduvaliyevich 1989-yil 13-iyulda Namangan viloyati Norin tumani Ho’jaobod qishlog’i Boyovul mahallasida ziyoli oilasida tug’ilgan.

1996-yilda Norin tumanidagi 28-umumiy o’rta maktabiga o’qishga qabul qilindi va u yerda 9 yil tahsil olib, 2005-yilda tamomladi. 2005-2008-yillar davomida NamDU qoshidagi 1-akademik litseyning aniq fanlar yo’nalishida ta’lim oldi hamda 2008-yilda Namangan davlat universiteti Matematika fakulteti amaliy matematika yo’nalishiga davlat granti asosida o’qishga qabul qilindi. U yerda 4 yil tahsil olib, 2012-yilda bakalavr diplomiga ega bo’ldi. 2012-yilda Namangan davlat universitetining “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” mutaxassisligiga davlat granti asosida o’qishga qabul qilindi va u yerda

2 yil ta'lim olib, 2014-yilda magistr diplomiga ega bo'ldi. 2012-2014-yillar davomida magistraturada o'qish bilan birga, Norin tumanidagi Norinkapa iqtisodiyot kollejida matematika o'qituvchisi (soatbay) lavozimida hamda 2013-2014-yillarda Norin tumanidagi qishloq xo'jalik va kasb-hunar kollejida matematika o'qituvchisi (soatbay) lavozimida ishladi.

2014-yil 2-sentabrda Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasiga o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilindi. G'.Hamdamov boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi, 102-guruhga rahbarlik qilish bilan birga, "Yosh matematik" to'garagi faoliyatini ham muntazam ravishda olib bormoqda.

### **SHARIPOVA NIGORA MIRZAMAXMUDOVNA**



Sharipova Nigora Mirzamaxmudovna 1971-yil 3-sentabrda Namangan viloyatining Chortoq tumani Muchum qishloq, Damariq mahallasining I.Fozilov ko'chasida tug'ilgan. 1989-1994-yillarda Namangan viloyati, Chortoq shahri, 5- o'rta maktabda laborant, o'qituvchi, 1994-2000yillar Toshkent shahar S.Rahimov tumani 196-

o`rta maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, 2000-2001-yillar O`zbekiston Milliy universiteti HM, muhandis, 2001-2002-yillar O`zbekiston Milliy universiteti qoshidagi OPI inf. texn., kabinet mudiri, 2002-2003-yillar O`zbekiston Milliy universiteti mexanika- matematika fakulteti katta laboranti, 2003-2011-yillar Toshkent shahar S.Rahimov tumani 242-o`rta maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, 2011-2015-yillar Toshkent shahar Yunusobod tumani 97-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi, 2015-yildan Namangan davlat universitetining muhandisi, 2016-yil Namangan davlat universitetining “Boshlang`ich ta`lim metodikasi” kafedrasida o`qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

## XOTIMA O'RNIDA

Hurmatli kitobxon! Buyuk siyosat va davlat arbobi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, tarixni bilmay turib, kelajakni qurib bo'lmaydi. Muhtaram yurtboshimizning ushbu o'gitlariga amal qilgan holda boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini tashkil etishda hamda uning keyingi faoliyatini takomillashtirishda jonkuyarlik va fidoyilik ko'rsatgan, afsuski, hozirgi kunda qatorimizda bo'lmagan professor-o'qituvchilarning porloq xotirasini yodga olish, kafedraning hozirgi kundagi faoliyati haqidagi ma'lumotni keng jamoatchilik ommasiga taqdim etish niyatida ushbu risolani tayyorlashni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Guvohi bo'lganingizdek, boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini nafaqat viloyatimiz, balki qo'shni viloyatlar xalq ta'limi tizimi uchun ham o'z kasbining ustasi bo'lgan, ma'naviy yetuk, barkamol avlodning jonkuyar tarbiyachilarini, mohir pedagoglarni tayyorlashda muhim mavqega egadir.

O'ylaymizki, hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan yosh pedagoglar kafedraning ilmiy, ilmiy-uslubiy salohiyatini yanada oshirishga, talabalar, ularning ota-onalari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari jamoalari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada yuksaltirishga, boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilar tayyorlashdek sharaflari va zahmatli ishni amalga oshirishda o'zlarining barcha aqlu zakovatlari va iqtidorlarini darig' tutmaydilar.

Ushbu risolani yaratishda yaqindan yordam ko'rsatgan boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining barcha professor-o'qituvchilariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Risolaning sifatini yanada takomillashtirish borasidagi fikrlaringizni ham mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Nu'monov T. Barhayot ustozlar (Xotiralar).-Namangan: Namangan, 2002.- 96 b.
- 2.Rahimov A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlash maskani.-Namangan, 1992.-16 b.
- 3.Rahimov A., Yusupov N. Namangan davlat universiteti olimlari.-Namangan: Namangan, 2002.-192 b.
- 4.Sobirova M. Namangan davlat universiteti olimalari.-Toshkent: Navro'z, 2016.-156 b.
- 5.Qurbonov Sh. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar).-Toshkent: Sharq, 1998.-184 b.

## MUNDARIJA:

Soʻz boshi.....	3
Boshlangʻich taʼlim metodikasi kafedrasini tarixi.....	5
Boshlangʻich taʼlim pedagogikasi va metodikasi kafedrasini .....	13
Boshlangʻich sinflarda ashula va musiqaoʻqitish metodikasi kafedrasini.....	18
Boshlangʻich sinflarda rus tili oʻqitish metodikasi kafedrasini.....	20
Boshlangʻich taʼlim metodikasi kafedrasini haqida umumiy maʼlumot.....	21
Boshlangʻich taʼlim metodikasi kafedrasida olib borilayotgan maʼnaviy-maʼrifiy ishlar.....	25
“Boshlangʻich taʼlimning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusida olib borilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar.....	52
Kafedrada faoliyat koʻrsatgan va koʻrsatayotgan professor oʻqituvchilar.....	54
Xotima oʻrnida.....	142

